International Scientific and Practical Conference

# Science & Innovation SUMMIT



## April 1, 2026

## London, Tashkent

zenodo

**Academic Research Publisher (United Kingdom)**

**UniScience journal (Republic of Uzbekistan)**

**********

# MATERIALS

## The international scientific-practical conference

## «SCIENCE & INNOVATION SUMMIT»

**London, Tashkent**

**April 1, 2026**

**********

**Science & Innovation Summit** //Materials International Scientific-Practical Conference. London, Tashkent. April 1, 2026.

## Editorial board of the conference

**Temnova L.V.** - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo'shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher"** (London, United Kingdom) and recommended for publication (March 28, 2026, Protocol No. 11).

**CONTENTS**

Geography and Global Ecology: Smart Landscapes ..... 6
BAXMAL TUMANING TABIATIGA QISQACHA TAVSIF ..... 7
Future Tech: Engineering and Industry 4.0 ..... 12
BLOKCHEYN ASOSIDAGI XAVFSIZ MA'LUMOT ALMASHINUVI ..... 13
Bio-Medicine: Genomics and the Pharmaceutical Revolution ..... 19
ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATSIYA BO`LIMI KATTA HAMSHIRASI FAOLIYATINING O`ZIGA XOS JIHATLARI ..... 20
OPTIK AKTIV MODDALARNING FARMAKOLOGIK TA`SIRI, YOXUD RATSEMATLARNING INSON ORGANIZMI UCHUN SALBIY OQIBATLARI VA RATSEMATDAN OPTIK AKTIV IZOMERLARNI AJRATISHNING ZAMONAVIY USULLARI ..... 27
SECONDS SAVE LIVES: HIGH-FIDELITY SIMULATION IN ADULT AND PEDIATRIC CARDIAC ARREST ..... 35
Digital Economy: Global Market and Legal Strategies ..... 47
O'ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI TURIZIMNI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR ..... 48
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMAT KO'RSATISHNING IQTISODIY SAMARADORLIK OMILLARI ..... 54
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ..... 67
Neuro-Pedagogy: Artificial Intelligence and Psychology in Education ..... 75
THE ROLE TEACHERS IN MODERN SOCIETY ..... 76
TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT VA PSIXOLOGIYA INTEGRATSIYASI ..... 80
EFFECTIVE METHODS OF TEACHER–STUDENT COLLABORATION IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS ..... 84
RAQAMLI MUHITDA O'QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH ..... 89
РАЗВИТИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА: ОТ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ К СОВРЕМЕННОМУ УРОКУ ..... 96
ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ .... 100

ИСТОРИКО- ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ ..... 104

New Frontiers: Fundamental Physics and Chemical Synthesis ..... 109

II ANALITIK GURUH $PB^{2+}$ KATIONINING O'ZIGA XOS SIFAT REAKSIYALARI ..... 110

HUMANITAS: CULTURE, PHILOSOPHY, AND SPIRITUAL HERITAGE 116

METODOLOGIK ASOSLARI: BELEWLI KARVON SAROYINI RESTOVRATSIYA QILISH BOSQICHLARI MISOLIDA ..... 117

USMON AZIM SHE'RLARIDA METAFORANING SEMANTIK QATLAMLARI ..... 124

USMON AZIM SHE'RLARIDA TAKROR VA ANTITEZANING USLUBIY VAZIFALARI ..... 129

KINO VA MEDIA SANOATINING MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLARGA TA'SIRI ..... 134

НАУЧНАЯ СТАТЬЯ: ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ НАГРУЗКА ТЮРКИЗМОВ В РУССКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ СКАЗКИ М.Ю. ЛЕРМОНТОВА «АШИК-КЕРИБ») ..... 146

Agro-Future: Sustainable Agriculture and Food-Tech ..... 151

СЕРОЗЕМЫ, ИХ ПЛОДОРОДИЕ И СИДЕРАТЫ ПРИ ЗИМНЕЙ ВЕГЕТАЦИИ ..... 152

# Geography and Global Ecology: Smart Landscapes


# BAXMAL TUMANING TABIATIGA QISQACHA TAVSIF

Akramova Maftuna Bahodir qizi
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*E-mail: maftuna17050901@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Baxmal tumani tabiiy geografik sharoiti, joylashuvi, iqlimi, relyefi va tabiiy resurslari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek hududning ekologik holatni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Baxmal tumani, iqlim, relyef, tabiiy resurslari, Turkiston tog' tizmasi, Sangzor daryosi, dorivor o'simliklar.*

**Kirish:** Baxmal tumani 1943-yil 8-mayda tashkil etilgan bo'lib, 1991-yilgacha Samarqand tumani tarkibida edi. Tuman Jizzax viloyatidagi eng janubiy hudud bo'lib, janubda Chumqor tog' orqali Tojikiston Respublikasi bilan (81,34 km), g'arbda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani (30,86 km), shimolda G'allaorol (24,79 km), va Sharof Rashidov (sobiq Jizzax) tumanlari (31,56), sharqdda va shimoli-sharqda Morguzar tizmasi bo'ylab Zomin tumani (75,77 km) bilan chegaradoshdir. Tuman chegarasining umumiy uzunligi 244,32 km bo'lib, shundan 160,27 km qismi Chumqor va Morguzar suvayirg'ichlariga, 24,6 km qismi suv obyektlariga (Bulung'ur kanali va Qorovultepa suv ombori) to'g'ri kelsa, qolgan 59,45 km qismi esa adir va baland tekisliklardan o'tadi. Umuman olganda tuman chegarasining 80 foizi tabiiy obyektlarga to'g'ri keladi va u Chumqor va Morguzar tog'lari orasida, Sangzor vodiysida joylashgan (1-rasm).



**1-rasm. Baxmal tumani xaritasi**

**Asosiy qism:** Baxmal tumani Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘irlarida joylashganligi bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turadi. Tumanda bo‘z, tog‘-qo‘ng‘ir va tog‘-o‘tloq tuproqlar keng tarqalgan bo‘lib, bu qishloq xo‘jaligi faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Suv resurslari asosan tog‘lardan oqib tushuvchi daryolar va soylar hisobiga shakllanadi. Tabiiy sharoitning xilma-xilligi hududda dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga hamda aholi joylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerning tabiati nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyohlar uchun ham doimo qiziqish markazida bo‘lib kelgan. Tuman tabiatining betakrorligi, avvalo, uning musaffo havosi va tog‘ cho‘qqilaridan boshlanuvchi tiniq buloqlarida namoyon bo‘ladi. Hudud relyefi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, baland tog‘lar, chuqur daralar va keng adirliklardan tashkil topgan. Bu xilma-xillik tumanda o‘ziga xos mikroiqlim shakllanishiga sabab bo‘lgan. Tuman flora va faunaga juda boy bo‘lib, bu yerda O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan ko‘plab noyob hayvonot va o‘simlik turlarini uchratish mumkin. Baxmalda, shuningdek bepoyon archazorlar va turli-tuman dorivor o‘simliklar

mavjud. Kiyiko’t (ziziphora), na’matak va tog‘ rayhoni kabi o‘simliklar o‘zining shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur. Tumanning baland tog‘li hududlarida joylashgan yaylovlar chorvachilikni rivojlantirish uchun zarur resurs hisoblanadi. Ekologik nuqtai nazardan, Baxmal tumani respublikadagi eng toza hududlardan biri hisoblanadi (2-rasm). Bu yerda sanoat korxonalarining kamligi va tabiiy landshaftning saqlanib qolganligi ekoturizmni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.



**2-rasm. Baxmal tumani tabiati**

Baxmal tumani mo’tadil kontinental va o’ziga xos tog’li iqlimi bilan ajralib turadi. Qish nisbatan sovuq va uzoq davom etadi. Yanvar oyining o’rtacha harorati -5°C dan -9°C gacha tog’li hududlarda bundan ham past bo’ladi. Yozi biroz salqin, iyul oyining o’rtacha harorati +25°C atrofida, tog’li qismlarda baland joylarida +15°C gacha kuzatiladi. Yuqori harorat ba’zan +35C dan +45C gacha ko’tarilsada, tog’ shabadalari issiqni yumshatib turadi. Yillik yog’in miqdori 300 mm dan 750 mm gacha yetadi va tog’li hududlarda bundan ham ko’p yog’ingarchilik kuzatiladi.

Tuman Jizzax viloyatining suvga eng boy va tabiati musaffo hududlardan biridir. Suv zahiralari, asosan, Turkiston tizmasidagi muzliklar va qorlarning erishi hisobiga shakllanadi. Tumanning asosiy arteriyasi – Sangzor daryosi baland tog‘lardan boshlanib, butun hudud dehqonchiligini suv bilan ta’minlaydi. Shuningdek, Oqsochsoy va Baxmalsoy kabi o‘nlab soylar hamda yuzlab shifobaxsh buloqlar tuman tabiatining ajralmas qismidir. Ma’lumotlarga ko‘ra, mahalliy buloq suvlari tarkibida kumush elementlari borligi sababli, suv uzoq vaqt o‘zining sifatini yo‘qotmaydi. Aynan mana shu ekologik toza va mineralga boy suv manbalari mashhur Baxmal olmalarining sersuv, shirin va uzoq saqlanuvchan bo‘lishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu boylikdan unumli foydalanish maqsadida bog‘larda zamonaviy tomchilatib sug‘orish texnologiyalari keng joriy etilmoqda.

Baxmal tumaning tog’li hududlarida va yaylovlarda tuproq qatlamining yuvilib ketishi natijasida eroziya jarayonlari yuz berib turadi. Chorvani haddan tashqari ko‘p boqilishi o‘tlarni ildizi bilan yo‘q bo‘lishiga olib kelmoqda. Daraxtlarning siyrakligi, tog‘ yonbag‘irlarida o‘simlik va butalar kesilishi oqibatida yomg‘ir suvi tuproqni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuvib ketmoqda. Dehqonchilikning tartibsiz olib borilishi, tik qiyaliklarni noto‘g‘ri haydash va sug‘orish yerning unumdor qatlamini kamaytirmoqda. Natijada hosildorlik pasayib, yerning mexanik tarkibi o‘zgarmoqda, chorva uchun keraksiz o‘simliklar ko‘payib bormoqda. Buning oldini olish uchun yaylov chorvachiligini tartibli tashkil etish lozim. Eroziya xavfi bor joylarga pista, bodom va na’matak kabi o‘simliklar ekish, hududda sel va suv toshqinlari kamaytirishi mumkin. Bahor oylarida tog’ cho’qqilardagi qorlarning erish natijasida va yomg’irli kunlar ko’p bo’lishi bilan birgalikda suv toshqinlari ko’paydi. Mana shu suvlardan oqilona foydalanish maqsadida ko’plab suv omborlar qurilgan. Hozirgi kunda suvni oqizmay, tomchilatib sug‘orishga o‘tgan.

**Xulosa:**

Baxmal tumani Jizzax viloyatining suvga eng boy tumanlaridan biri bo`lib, mahalliy buloq suv tarkibida kumush elementining borligi sababli suv o`z sifatini uzoq vaqt yo`qotmaydi. Mana shu ekologik toza va minerallarga boy bo`lgan suv

manbalari baxmal olmalarining shirin, sersuv va uzoq saqlanishiga asosiy sabab hisoblanadi. Tumanning tog`li hududlarida daraxt va butalarning kesilishi natijasida yomg`ir suvi tuproqni hosildor qatlamini to`g`ridan- to`g`ri yuvib ketmoqda. Natijada yer hodildorligi kamayib yaroqsiz holga kelmoqda. Buning yechimi erroziya xavfi bor joylarda pista, bodom, na`matak kabi o`simliklar ekish hamda ekin ekiladigan maydonlarda almashlab ekishni joriy qilish shuningdek, ekin maydonlarida almashlab ekishni hamda zamonaviy tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Abdunazarov, O. K. Jizzax viloyati geografiyasi. — Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2018.
2. Baratov, P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Safarov, K. S. O‘zbekiston dorivor o‘simliklari va ularni muhofaza qilish. — Toshkent: Universitet, 2010.
4. Xakimov, K. A. Baxmal tumani tabiatidan foydalanishda landshaft rejalashtirishini qo‘llash: monografiya. — T.: Ma’rifat, 2023. — 228 bet.
5. Vikipediya. Baxmal tumani.

# Future Tech: Engineering and Industry 4.0

# BLOKCHEYN ASOSIDAGI XAVFSIZ MA'LUMOT ALMASHINUVI

Yuldashev Shodiyor Shuhrat o'g'li
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti*
shyuldashev@tsue.uz
Bozorboyeva Fazilat Baxtiyor qizi
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti*
Fazilatbazarbayeva934@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib,turli sohalarga chuqur singib bormoqda. Axborot texnologiyalari innovotsiyalarga asoslangan yangi yechimlarni taklif qilib, biznes, moliya, huquq, sog'liqni saqlash, ta'lim va davlat boshqaruvi kabi sohalarni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ushbu blokcheyn texnologiyalari xavfsizlik va ma'lumotlarni boshqarish sohasida yangi istiqbolni ifodalaydi. Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish shaffoflik, samaradorlik va ishonchni ta'minlovchi xavfsizlik va ma'lumotlarni boshqarish sohasida yangi qirralarni ochadi. Blokcheynning eng muhim jihati- ma'lumotlarning markazlashmagan tarzda saqlanishi va o'zgartirilmaydigan yozuvlar tizimi hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Blokcheyn texnologiyasi, ma'lumotlar, tranzaksiya, texnologiyalar, blok, kriptografiya, ma'lumot xavfsizligi, kriptovalyuta*

***Abstract:*** *In the modern world, digital technologies are rapidiliy developing anda deeply penetrating various fields. Information technologies are significantly changing such areas as business, finance, law, healthcare, education, and public administration, offering new solutions based on innovations. These blockchain technologies represent a new perspective in the field of security and data management. The use of blokchain technologies opens up new horizons in the field of security and data management, ensuring transparency, efficiency, and trust. The*

*most important aspect of blokchain is the decentralized storage of data and an immutable record system.*

***Keywords:*** *Blokchain technology, data, transaction, technologies, block, cryptography, data security, cryptocurrency*

***Аннотация:*** *В современном мире цифровые технологии стремительно развиваются ии глубоко проникают в различные области. Информационные технологии существенно меняют такие сферы, как бизнес, финансы, право, здравоохранение, образование и государственное управление, предлагая новые решения, основанные на инновациях. Технологии блокчейна представляют собой новую перспективу в области безопасности и управления данными. Исползование технологий блокчейна отривает новые горизонты в области безапоснасти и управления данными, обеспечивая прозрачность, эффективность и доверие. Важнейшим аспектом блокчейна является децентрализованное хранение данных и неизменяемая система записей.*

***Ключевые слова:*** *технология блокчейн, данные, транзакция, технологии , блок, криптография, безопасность данных, криптовалюта*

Hozirgi raqamli davrda axborot eng muhim resurslardan biri hisoblanadi. Internet va turli raqamli xizmatlarning keng rivojlanishi natijasida ma’lumotlar almashinuvi hajmi keskin oshib bormoqda. Shu bilan birga, ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash , ularni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish va ishonchli tarzda uzatish masalalari dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. An’anaviy ma’lumotlar almashinuvi tizimlarida markazlashgan serverlardan foydalanishi sababli, tizimga hujum qilish, ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki o‘g‘irlash xavfi mavjud bo‘ladi. Ushbu maqolada blokcheyn texnologiyasining ma’lumot almashinuvidagi o‘rni, uning xavfsizligini ta’minlashdagi afzalliklari hamda zamonaviy axborot tizimlarida qo‘llanilishi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, blokcheyn asosidagi xavfsiz ma’lumot almashinuvi tizimlarining ishlash tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. “Blokcheyn” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lip, “blok zanjiri” ma’nosini anglatadi. Boshqa bir adabiyotda keltirigan ta’rifga asosan, “Blokcheyn (Blokchain) - bu

markazlashmagan, o‘zgarmas ma’lumotlar bazasi bo‘lib, unda ma’lumotlar zanjir shaklida saqlanadigan va kriptografik usullar bilan himoyalanadigan tizim”[1] . “Anglya bankining fikricha , “blokcheyn - bu bir-birini bilmaydigan insonlarga ishonchli tarda va birgalikda foydalanish imkonini beradigan texnologiyadir”.Bir so‘z bilan aytganda, Blokcheyn - ma’lum qoidalar asosida tuzilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma - ket zanjiridir”.[2]

“Blok - bu taqsimlangan reyestrda amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqidagi qaydlar hisoblanadi. Unda, bir shaxs boshqa shaxsga qancha miqdordagi aktivlar o‘tkazmalar aks etgan bo‘ladi. Barcha bloklar o‘z o‘rnidabitta zanjirga ulangan bo‘ladi. Blokcheyn zanjiri uzilmasdir, sababi har bir blok oldingi blokka havola qiladi. Bloklarni o‘zgartirib yoki o‘chirib bo‘lmaydi, faqat unga yangi bloklarni qo‘shish mumkin. Ushbu holat bilan, har qanday holatda muayyan aktivlarning o‘tkazmalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning tarixini tiklab uning oldinggi egasini aniqlash imkoniyati mavjud. Ba’zida blokcheyn texnologiyasi <<qadryatlar interneti >> deb ataladi. Bloklar orasidagi aloqa nafaqat raqamlash bilan balki, har bir blokda o‘zining va o‘zidan oldinggi blokning xesh qiymati bilan ta’minlanadi. Blokdagi ma’lumotni o‘zgartirish uchun keyingi barcha bloklarni tahrirlash kerak bo‘ladi. Ko‘pincha blok zanjirlarining nusxalari bir-biridan mustaqil ravishda turli kompyuterlarda saqlanadi. Bu esa o‘z navbatida bloklarga o‘zgartirish kiritishni qiyinlashtiradi”.[3]

“Blokcheyn texnologiyasining turli sohalardagi qo‘llanilshi va afzalliklari”[4].

| **Soha** | **Blokcheyn qo‘llanilishi** | **Afzalliklari** |
|---|---|---|
| **Moliyaviy xizmatlar** | Kriptovalyutalar, DeFi, aqlli kontraktlar | Oraliq bo‘g‘inlarni yo‘qotish, tezkor va xavfsiz tranzaksiyalar |
| **Elektron tijorat** | Blokcheyn asosida to‘lov tizimlari, firibgarlikdan himoya | Shaffoflik, xarajatlarni kamaytirish |

| | | |
|---|---|---|
| **Davlat boshqaruvi** | Saylov tizimlari, yer kadastri, hujjatlarni ro‘yxatga olish | Korrupsiyani kamaytirish, ma’lumotlarning xavfsizligi |
| **Sog‘liqni saqlash** | Bemorlarning tibbiy yozuvlarini blokcheynda saqlash | Maxfiylik, ma’lumotlarni tezkor almashish |
| **Logistika va ta’minot zanjiri** | Mahsulotlar harakatini kuzatish, autentifikatsiya | Soxtalashtirishdan himoya, samaradorlikni oshirish |

Blokcheyn texnologiyasi dastlab kriptovalyutalar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda uning qo‘llanilish doirasi ancha kengaydi. Turli sohalarda blokcheyndan foydalanish orqali ma’lumotlar xavfsizligini oshirish, tranzaksiyalarni tezlashtirish va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish mumkin.

Moliyaviy xizmatlar sohasida blokcheyn texnologiyasi eng faol qo‘llanilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Xususan, kriptovalyutalar, DeFi (markazlashmagan moliya tizimlari) va aqlli kontraktlar orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda oraliq bo‘g‘inlar (banklar yoki vositachilar) kamayadi yoki umuman yo‘q qilinadi. Natijada tranzaksiyalar tezkor, arzon va xavfsiz tarzda bajariladi.

Elektron tijoratda blokcheyn texnologiyasi to‘lov tizimlarini takomillashtirish va firibgarlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Blokcheyn asosida yaratilgan tizimlar orqali har bir tranzaksiya ochiq va tekshiriladigan bo‘ladi, bu esa shaffoflikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Davlat boshqaruvi tizimida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish korrupsiyani kamaytirish va fuqarolar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, saylov tizimlarida ovoz berish jarayonini shaffof qilish, yer kadastri va hujjatlarni ro‘yxatga olishda ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan shaklda saqlash imkoniyati yaratiladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida esa blokcheyn texnologiyasi bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini xavfsiz saqlash va tezkor almashish imkonini beradi. Bu orqali

bemorlar haqidagi ma’lumotlarning maxfiyligi ta’minlanadi, shuningdek, shifokorlar o‘rtasida zarur ma’lumotlarni tezkor uzatish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi logistika, ta’lim va intellektual mulkni himoya qilish kabi boshqa ko‘plab sohalarda ham qo‘llanilmoqda. Masalan, yetkazib berish zanjirida mahsulot harakatini kuzatish, diplom va sertifikatlarni soxtalashtirishning oldini olish, mualliflik huquqlarini himoya qilish kabi vazifalarni samarali bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyasi zamonaviy raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Uning markazlashmagan tuzilmasi, yuqori darajadagi xavfsizligi va o‘zgartirib bo‘lmaydigan yozuvlar tizimi turli sohalarda ishonchli va shaffof muhit yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar, elektron tijorat, davlat boshqaruvi va sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarda blokcheyn texnologiyasining qo‘llanilishi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda inson omiliga bog‘liq xatolarni minimallashtirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, ushbu texnologiya ma’lumotlarni himoya qilish, firibgarliklarning oldini olish va tizimlar o‘rtasida tezkor hamkorlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kelajakda blokcheyn texnologiyasining yanada takomillashuvi va keng joriy etilishi natijasida turli sohalarda yangi innovatsion yechimlar paydo bo‘lishi kutilmoqda. Shu sababli, blokcheyn texnologiyasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Mamatqulov Sardorbek Muzaffar o‘g‘li Blokcheyn texnalogiyasi tushunchasi va blokcheyn asosidagi huquqiy xizmatlar // INNOVATIVE. — URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.17558253

2. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH Blokcheyn texnologiyasi tushunchasi va uning huquqiy

maqomi. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/blokcheyn-texnologiyasi-tushunchasi-va-uning-huquqiy-maqomi/viewer

3. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH Blokcheyn texnologiyasi tushunchasi va uning huquqiy maqomi. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/blokcheyn-texnologiyasi-tushunchasi-va-uning-huquqiy-maqomi/viewer

4. Giyazova Nozima Bayazovna, Jumayev Sherzod Shokirjon o‘g‘li Blokcheyn texnologiyasi va uning raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni // Miasto Przyszłości. — 2025. — Vol. 60. — 642 b.

# Bio-Medicine: Genomics and the Pharmaceutical Revolution

# ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATSIYA BO`LIMI KATTA HAMSHIRASI FAOLIYATINING O`ZIGA XOS JIHATLARI

Hafizova Maftuna

Yuldasheva Shaxlo

*Buxoro davlat Tibbiyot institute*

hafizovamaftuna93@gmail.com

***Annotatsiya****: Mazkur maqolada anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limida faoliyat yurituvchi katta hamshiraning kasbiy vazifalari, mas’uliyat darajasi va tibbiy jamoada tutgan o‘rni yoritib berilgan. Bo‘limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yerda hayot uchun xavfli bo‘lgan holatdagi bemorlar bilan ishlanadi, bu esa katta hamshiradan yuqori darajadagi tayyorgarlik, muvofiqlashtirish qobiliyati va tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Maqolada katta hamshiraning diagnostik va davolovchi muolajalarni muvofiqlashtirishdagi roli, bemor parvarishini tashkil etish, yosh hamshiralarga rahbarlik qilish hamda reanimatsion uskunalarning texnik tayyorgarligini nazorat qilish kabi jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy davrda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, stressga bardoshlilik va jamoaviy ishning ahamiyati haqida ham fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar****: anesteziologiya, reanimatsiya, katta hamshira, bemor parvarishi, hayotiy funksiyalarni tiklash, reanimatsion yordam, kasbiy kompetensiya, sog‘liqni saqlash jamoasi, favqulodda holat, tibbiy muvofiqlashtirish, stressga bardoshlilik.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются профессиональные обязанности, уровень ответственности и роль старшей медицинской сестры, работающей в отделении анестезиологии и интенсивной терапии, а также в составе медицинской бригады. Отличительной особенностью этого отделения является работа с пациентами в жизнеугрожающих состояниях,*

*что требует от старшей медицинской сестры высокого уровня подготовки, навыков координации и быстрого принятия решений. В статье анализируется роль старшей медицинской сестры в координации диагностических и терапевтических процедур, организации ухода за пациентами, руководстве младшими медицинскими сестрами и контроле технической готовности оборудования интенсивной терапии. В статье также обсуждается важность развития профессиональных компетенций, стрессоустойчивости и командной работы в современных условиях.*

***Ключевые слова**: анестезиология, интенсивная терапия, старшая медицинская сестра, уход за пациентами, восстановление жизненно важных функций, интенсивная терапия, профессиональная компетентность, медицинская бригада, неотложная помощь, медицинская координация, стрессоустойчивость.*

***Abstract**: This article discusses the professional duties, level of responsibility and role of a senior nurse working in the anesthesiology and intensive care unit and the medical team. A distinctive feature of the unit is that it deals with patients in life-threatening conditions, which requires a high level of training, coordination skills and quick decision-making from the senior nurse. The article analyzes the role of the senior nurse in coordinating diagnostic and therapeutic procedures, organizing patient care, leading junior nurses and monitoring the technical readiness of intensive care equipment. The article also discusses the importance of developing professional competencies, stress tolerance and teamwork in modern times.*

***Keywords**: anesthesiology, intensive care, senior nurse, patient care, restoration of vital functions, intensive care, professional competence, health care team, emergency, medical coordination, stress tolerance.*

**Kirish**. Zamonaviy sog’liqni saqlash tizimida anesteziologiya va reanimatsiya bo’limlari eng mas‘uliyatli va murakkab tibbiy xizmat ko’rsatiladigan yo’nalishlar sirasiga kiradi. Ushbu bo’limlarda hayotiy xavf ostida bolgan bemorlar bilan ishlash, ularning hayotiy funksiyalarini tiklash va doimiy nazorat qilish tibbiy xodimlardan

yuqori darajadagi malaka, tezkorlik, aniqlik va ruhiy barqarorlikni talab etadi. Ayniqsa, katta hamshiraning ushbu muhim bolimdagi roli alohida e‘tiborga loyiqdir. Katta hamshira nafaqat bevosita parvarish faoliyatini nazorat qiladi, balki bolimdagi barcha hamshiralarning ishini tashkil etadi, bemorlar holatini monitoring qiladi, reanimatsion muolajalarni tayyorlaydi va bajarilishini muvofiqlashtiradi. U tibbiy texnika va uskunalarning tayyor holatda bolishini, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya etilishini, shuningdek, hujjatlar yuritilishini ham ta‘minlaydi. Tibbiyotda yangi texnologiyalar joriy qilinib borayotgan hozirgi davrda, katta hamshiralar zimmasiga nafaqat amaliy, balki tashkiliy va pedagogik vazifalar ham yuklanmoqda. Ular yosh hamshiralar uchun ustozlik qiladi, jamoada kasbiy muhitni shakllantiradi va operativ vaziyatlarga tayyor bolishni ta‘minlaydi. Shu nuqtai nazardan, anesteziologiya va reanimatsiya bolimida faoliyat yurituvchi katta hamshiralarning ish faoliyatini chuqur organish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada katta hamshiraning ushbu bolimdagi faoliyati, kasbiy vazifalari, psixologik va kasbiy kompetensiyalari, hamda u duch keladigan murakkab holatlar yuzasidan tahlillar keltiriladi.

Tibbiyot amaliyotida anesteziologiya va reanimatsiya bo’limlari inson hayotini saqlab qolishning eng muhim zvenolaridan biri sifatida qaraladi. Bu yo’nalishda faoliyat yurituvchi katta hamshiralar faoliyatining o’ziga xos jihatlarini ilmiy yondashuv asosida yoritish bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda oz ifodasini topgan. Xorijiy adabiyotlarda, xususan, J. Morton va L. Marino kabi mutaxassislarning asarlarida reanimatsiya bo’limlarida ishlovchi katta hamshiralar klinik ko’nikmalar bilan bir qatorda, operativ boshqaruv, jamoa koordinatsiyasi va qaror qabul qilish mas‘uliyatiga ham ega bo’lishlari ta‘kidlangan. Ularning ta‘kidlashicha, katta hamshiralar bemorning holatini baholashda shifokor bilan teng mas‘uliyatda ishtirok etadi. D. Benner va P. Benner kabi tadqiqotchilar esa kasbiy kompetensiyalar nazariyasi orqali hamshiralarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, reanimatsion muhitda katta hamshiraning ko’p yillik tajribaga tayangan holda ―ekspert‖ darajaga chiqishini asoslab berishgan. Rossiyalik olimlardan И.Ю. Гусева ва С.М. Никитина tomonidan anesteziologiya va reanimatsiya bo’limlarida

hamshiralar faoliyatini tashkil etishga oid tadqiqotlarda, ayniqsa, favqulodda holatlarda togri harakat qilish algoritmlari, shoshilinch yordam ko'rsatishdagi muvofiqlashtirish va emotsional bardoshlilikka katta e'tibor berilgan. O'zbekistonlik mualliflar — Z. R. Xo'jayev, D. M. Komilova va boshqalar tahriridagi mahalliy adabiyotlarda reanimatsion yordamda hamshiralik parvarishining tibbiy va etik talablari, yondashuvlar, parvarish bosqichlari va hujjatlashtirish masalalari keng yoritilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni korsatadiki, katta hamshiralar anesteziologiya va reanimatsiya bo'limida bemor hayotini saqlab qolish, parvarish sifatini ta'minlash va jamoa ishini muvofiqlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, ularning faoliyatiga oid ilmiy yondashuvlar kasbiy tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi. Metod va metodologiya. Mazkur tadqiqotda anesteziologiya va reanimatsiya bolimi katta hamshirasining kasbiy faoliyatini organish, tahlil qilish va uning oziga xos jihatlarini aniqlash maqsad qilib qoyildi. Shu asosda tadqiqot quyidagi metodologik asoslar va amaliy metodlarga tayangan holda olib borildi: Metodologik asoslar: Tadqiqotning metodologik bazasi sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: ¬ Tizimli yondashuv – katta hamshiraning faoliyati bolimdagi boshqa tibbiy xodimlar bilan uzviy bogliqlikda organildi. ¬ Faoliyat yondashuvi – katta hamshiraning kasbiy majburiyatlari, amaliy va tashkiliy vazifalari tahlil qilindi. ¬ Kasbiy kompetensiyaviy yondashuv – faoliyatni baholashda malaka va konikmalar mezonlari asos qilib olindi.

**Tadqiqot metodlari**: 1. Tahliliy (analiz) metodi – ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, tibbiy protokollar o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari umumlashtirildi. 2. So'rovnoma usuli – 20 nafar katta hamshiraga faoliyat mazmuni, kasbiy muammolar, zarur kompetensiyalar yuzasidan anketalar tarqatildi. 3. Suhbat metodi – reanimatsiya bo'limida faoliyat yuritayotgan malakali hamshiralar bilan ochiq intervyular o'tkazildi. 4. Kuzatuv usuli – bevosita klinik amaliyot jarayonida katta hamshiraning kundalik faoliyati (tashkiliy, klinik, nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalari) kuzatildi. 5. Taqqoslash usuli – katta hamshiralarning faoliyati boshqa

bo’limlardagi rahbar hamshiralar faoliyati bilan solishtirilib, oziga xosliklar aniqlashtirildi.

**Natija.** Tadqiqot natijalarini to’gri tahlil qilish maqsadida yig’ilgan ma‘lumotlar tizimlashtirilib, statistik jihatdan guruhlash va xulosalash orqali umumlashtirildi. Ushbu metodlar asosida anesteziologiya va reanimatsiya bolimida katta hamshiraning professional portreti, duch keladigan muammolar va ularning echimlariga oid tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida anesteziologiya va reanimatsiya bo’limida faoliyat yuritayotgan katta hamshiralar ishtirokida so’rovnoma, suhbat va kuzatuv asosida amaliy tahlillar olib borildi. Natijalar ularning kasbiy faoliyati oziga xos murakkablik va mas‘uliyat bilan ajralib turishini ko’rsatdi. Quyida asosiy natijalar keltiriladi: Kasbiy faoliyatning ko’p qirrali xususiyati: Tadqiqotda qatnashgan 20 nafar katta hamshiraning 90% i o’z faoliyatida nafaqat parvarish ishlarini, balki tashkiliy, nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalarni ham bajarishini qayd etdi. Ular bemor holatini monitoring qilish, yosh hamshiralarga yo’naltiruvchi rahbarlik qilish, asbob-uskunalarning tayyor holatda bolishini nazorat qilishda faol ishtirok etadilar. Tezkorlik va stressga bardoshlilik: Respondentlarning 75% i oz faoliyati yuqori darajadagi psixologik bosim, tezkor qaror qabul qilish va shoshilinch holatlarga tayyorlikni talab qilishini ta‘kidladi. Ayniqsa, reanimatsiya holatlarida vaqt omili muhim rol oynaydi. Kasbiy malaka va bilimlarni uzluksiz yangilashga ehtiyoj: So’rovnomada ishtirok etganlarning 82% i anesteziologiya va reanimatsiya bo’limidagi zamonaviy texnologiyalar, dori vositalari va muolajalar boyicha doimiy ravishda bilimlarini yangilab borishga ehtiyoj sezishlarini bildirishdi. Jamoaviy hamkorlik: Katta hamshiralar oz ishlarida doimiy ravishda shifokor-anesteziolog, reanimatolog, laboratoriya va boshqa bolim xodimlari bilan hamkorlikda ishlashini, samarali aloqa va koordinatsiya ularning faoliyatida muhim o’rin tutishini tasdiqlashdi (88%). Yosh kadrlar bilan ishlash: Tadqiqotda aniqlanishicha, katta hamshiralar nafaqat klinik jarayonlar, balki pedagogik vazifalarni ham bajaradilar. Ularning 65% i yosh va yangi ish boshlagan hamshiralarni o’rgatish, nazorat qilish va ularga kasbiy yo’l-yoriq korsatish boyicha faol ishlayotganini aytib otdilar.

**Xulosa**.Tadqiqot davomida katta hamshiralar tomonidan aytilgan fikrlardan ma‘lum boldiki, ularning ishida eng muhim omillar — Reanimatsion holatlarda tez va aniq harakat qilish; Bemorlarga psixologik yondashuvni togri tanlash; Yosh hamshiralarni tarbiyalash va ularga namuna bolish; Tibbiy texnologiyalardan samarali foydalanish; Bolimda jamoaviy muvozanatni saqlab turish. Shu bilan birga, ayrim kamchilik va muammolar ham kuzatildi. Jumladan, katta hamshiralar uchun malaka oshirish kurslarining yetarli emasligi, psixologik yordam tizimining yoqligi va mehnat sharoitlarining murakkabligi ularning samaradorligiga salbiy ta‘sir korsatmoqda. Shunday qilib, anesteziologiya va reanimatsiya bolimi katta hamshirasining faoliyati — bu tibbiy, tashkiliy va pedagogik mas‘uliyatlar uygunlashgan murakkab tizimdir. Ularning mehnatini ilmiy asosda organish, baholash va qollab-quvvatlash zamonaviy sogliqni saqlash tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tadqiqot natijalari va tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

**1.** Гусева И. Ю., Никитина С. М. Основы сестринского дела в реаниматологии и анестезиологии. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021. — 256 с.

**2.** Benner, P. From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice. — Menlo Park: Addison-Wesley, 1984. — 307 p.

**3.** Marino, P. L. The ICU Book. — 4th ed. — Philadelphia: Wolters Kluwer, 2014. — 1092 p.

**4.** Morton, P. G., Fontaine, D. K. Critical Care Nursing: A Holistic Approach. — 10th ed. — Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2012. — 848 p.

**5.** Хўжаев З. Р., Комилова Д. М. Реанимация ва интенсив терапияда ҳамширалик хизмати: ўқув қўлланма. — Тошкент: Ibn Sino, 2022. — 144 б.

**6.** O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘yicha klinik protokollar. — Toshkent, 2021. — 118 б.

**7.** Всемирная организация здравоохранения. Руководство по оказанию неотложной помощи. — Женева: ВОЗ, 2020. — 200 с.

**8.** Шарипова Н. М. Психологическая устойчивость медицинских сестер в условиях интенсивной терапии // Медицинская психология в России. — 2020. — № 4. — С. 52–59.

**9.** Rahmatova, M. Y. Kasbiy kompetensiyalar va zamonaviy hamshiralik yondashuvlari. — Samarqand: Ilm Ziyo, 2021. — 96 б.

**10.** Sog‘liqni saqlash xodimlari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. Reanimatsiya bo‘limi faoliyati va hamshiralik nazorati. — Toshkent: Respublika ilmiy-amaliy markazi, 2023. — 74 б.

# OPTIK AKTIV MODDALARNING FARMAKOLOGIK TA`SIRI, YOXUD RATSEMATLARNING INSON ORGANIZMI UCHUN SALBIY OQIBATLARI VA RATSEMATDAN OPTIK AKTIV IZOMERLARNI AJRATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Halimova Hulkar Amin qizi

*BuxDU*

***Annotatsiya**: Ushbu ishda optik aktiv moddalarning biologik tizimlardagi o‘rni va ularning farmakologik ta’siridagi farqlar tahlil qilingan. Maqolada xiral dorivor vositalarning inson organizmiga ta’siri faqatgina kimyoviy tarkibga emas, balki molekulaning fazoviy konfiguratsiyasiga ham bog‘liqligi yoritilgan. Ratsemat aralashmalarning (izomerlar aralashmasining) qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlar va toksik oqibatlar, xususan, tibbiyot tarixidagi "talidomid fojiasi" misolida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy farmatsevtika va kimyo sanoatida ratsematlardan sof optik izomerlarni ajratib olishning samarali usullari — xiral xromatografiya (HPLC), enzimatik ajratish va selektiv kristallanish kabi texnologiyalarning afzalliklari bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi dori vositalarining xavfsizligini oshirishda xiral tozalikning ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:** Optik aktivlik, enantiomerlar, ratsemat, xirallik, farmakologik selektivlik, xiral xromatografiya, teratogen ta’sir, biokimyoviy faollik.*

***Аннотация**: В данной работе анализируется роль оптически активных веществ в биологических системах и особенности их фармакологического действия. В статье подчеркивается, что действие хиральных лекарственных средств на организм человека зависит не только от их химического состава, но и от пространственной конфигуратsiи молекулы. Обсуждаются побочные эффекты и токсические последствия, которые могут возникнуть при использовании рацемических смесей (смесей изомеров), в частности, в случае*

*«трагедии талидомида» в истории медицины. Кроме того, описаны преимущества таких технологий, как хиральная хроматография (ВЭЖХ), ферментативное разделение и селективная кристаллизatsiя, для выделения чистых оптических изомеров из рацематов в современной фармацевтической и химической промышленности. Цель исследования — продемонстрировать важность хиральной чистоты для повышения безопасности лекарственных средств.*

***Ключевые слова**: оптическая активность, энантиомеры, рацемат, хиральность, фармакологическая селективность, хиральная хроматография, тератогенный эффект, биохимическая активность.*


***Annotation**: This work analyses the role of optically active substances in biological systems and the differences in their pharmacological effects. The article highlights that the effect of chiral drugs on the human body depends not only on their chemical composition but also on the molecule's spatial configuration. The adverse effects and toxic consequences that can arise from the use of racemic mixtures (mixtures of isomers), particularly in the case of the 'Thalidomide tragedy' in medical history, are discussed. Furthermore, the advantages of technologies such as chiral chromatography (HPLC), enzymatic separation, and selective crystallisation for the isolation of pure optical isomers from racemates in the modern pharmaceutical and chemical industries are described. The aim of the study is to demonstrate the importance of chiral purity in enhancing the safety of medicinal products.*

***Keywords**: optical activity, enantiomers, racemate, chirality, pharmacological selectivity, chiral chromatography, teratogenic effect, biochemical activity.*


Organik moddalarni enantiomer toza shaklda olish imkoniyati bo‘lsa-da, kimyogarlar har doim ham reaksiyalarni alohida enantiomerlarni ajratib oladigan darajada o‘tkazishga intilmaydi, chunki odatda organik reaksiyalar sekin va kamsellektiv reaksiyalar hisoblanadi va natijada, odatda ratsemat hosil bo`lishi osonroq bo`ladi. Bundan tashqari, enantiomerlarning kimyoviy va fizik xossalari bir

xil bo`lganligi sababli, ularni to`g`ridan-to`g`ri ajratib bo`lmaydi. Shuning uchun, ko‘p hollarda ularning ratsematik aralashmalari ham amaliyotda ko`p ishlatiladi.

Biologik tizimlarda vaziyat butunlay boshqacha. Tabiat odatda aralashmalarni emas, balki individual enantiomerlarni "sintez qiladi". Masalan, tirik organizmlarda deyarli faqat L-aminokislotalar uchraydi, ammo ayrim bakteriyalar D-enantiomerlarni sintez qila oladi. Buning sababi - biologik substratlarning o‘zi xiral bo‘lib, ular enantiomerlarni bir-biridan ajrata oladi. Xususan, faqat bitta enantiomer bilan reaksiyaga kirishadigan fermentlar mavjud. Bunday fermentlardan biri lipaza bo'lib, u karboksil kislotalarning efirlarini gidroliz qilishni katalizlaydi:



Agar R-o`rinbosarda xiral markaz bo'lgan efirning gidrolizi ishqoriy yoki kislotali katalitik sharoitlarda, ammo lipaza ishtirokisiz amalga oshirilsa, ikkala enantiomer ham bir xil tezlikda reaksiyaga kirishadi. Biroq, agar gidroliz lipaza ishtirokida amalga oshirilsa, faqat bitta enantiomer reaksiyada ishtirok etadi:




Etil-(±)-2-ftorgeksanoat ratsematik aralashma

Etil-(R)-(+)-2-ftorgeksanoat 99% optik toza


(S)-(-)-2-ftorgeksan kislota

Ko'rinib turibdiki, R-enantiomer fermentning faol xiral markazi bilan o'zaro ta'sirlasha olmaydi; shuning uchun u gidrolizlanmaydi va S-enantiomer gidrolizlanayotganda o'zgarmas holda qoladi.

Enantiomerlarning turlicha biologik faolligiga yana bir misol **karvon** enantiomerlarining turlicha hididir. (+)-Karvon va (–)-karvon tabiiy efir moylaridan ajratib olingan bo'lib, ularning tuzilish formulalari bir xil.



(+)-Karvon




(-)-Karvon

Biroq, har bir enantiomer o'ziga xos, noyob hidga ega. Buning sababi shundaki, hid sezishga mas'ul bo'lgan tanadagi retseptorlar ham xiral bo'lib, ularning har biri faqat karvon moddasining ma'lum bir enantiomeri bilan bog'lanishga qodir.


- (+)-Karvon: Ukrop hidini beradi.
- (-)-Karvon: Yalpiz hidini beradi.


Inson salomatligi barcha narsadan ustunligini inobatga oladigan bo`lsak, organik moddalarning, ayniqsa, dori-darmon vositasi sifatida ishlatiladigan organik birikmalarning biologik faolligi, xirallikka to`g`ridan-to`gri bog`liq bo`ladi. Bu esa xirallik va inson salomatligi orasida chambarchas bog`liqlik mavjudligini hamda bu soha juda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Ma'lumki, agar dori molekulasi xiral markazga ega bo'lsa, enantiomerlardan faqat bittasi farmakologik ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, biokimyoviy reaksiya ya`ni farmakologik ta'sir faqat dori molekulasining tegishli faol markazlari bilan retseptor o'rtasida aloqa bo'lganda sodir bo'lishi mumkin.

Masalan, ibuprofen dorisining ikki enantiomeri ichidan faqat S-izomer biologik jihatdan faol bo'lib, yallig'lanishga qarshi va isitma tushiruvchi ta'sirga ega. R-enantiomer esa faol emas, biroq tanada u sekin-asta faol S-izomeriga aylanadi.





Xuddi shunday, ‘metildofa’ dori vositasi sifatida **intrakranial** bosimni kamaytirishda faqat S-izomer shaklida samarali. Yana bir misol – penitsillamin bo'lib, u surunkali artrit davolashda faqat S-izomer shaklida samarali. R-enantiomeri farmakologik ta'sirga ega emas va zaharlidir.






***Metildofa*** ***Penitsillamin***

Dori-darmonlarda xiral tozalik ahamiyati haqida gap ketganda, mash'um talidomid holatini tilga olmaslikning iloji yo'q. Ushbu dori 1950-yillarning o'rtalarida sobiq Germaniya Federativ Respublikasida homiladorlik paytida organizmni tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan. Biroq, 1961 yilda uning qo'llanilishi bilan bog'liq jiddiy muammolar haqidagi birinchi xabarlar paydo bo'ldi. Talidomid qabul qilgan ayollardan tug'ilgan ko`plab bolalarda tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilish qayd etildi.





***Talidomid (R)*** ***Talidomid (S)***

1979-yilda nemis kimyogarlari talidomid enantiomerlarini ajratib, faqat S-enantiomerning salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotladilar va toza R-enantiomerni qo'llashni tavsiya qilishdi. 1984-yilda ikkala enantiomer ham fiziologik pH darajalarida tezda bir-biriga aylanishi aniqlandi. Shunga qaramay, kasallikning, ayniqsa og'ir shakllarini davolashda shifokorlar aynan shu dorini tavsiya qilishadi.

Bularning barchasini hisobga olsak, chet el farmatsevtika kompaniyalari hozirda dori-darmonlarning aksariyatini ratsemik aralashmalar emas, balki alohida enantiomerlar shaklida ishlab chiqarishi ajablanarli emas.

Biroq, tanada bitta enantiomerning muvaffaqiyatli "ta'siri" ikkinchisidan foyda olish imkoniyatini yo'q qiladi, deb o'ylamaslik kerak. Allaqachon tabiiy oqsillar faqat L-aminokislotalardan iboratligi qayd etilgan. Biroq kimyogarlar D-aminokislotalar bilan ishlashdan chekinmaydilar, ulardan D-oqsillar hosil qiladilar.

D-proteinlar parchalovchi fermentlar ta'siriga nisbatan chidamliroq ekani aniqlangan, chunki ular parchalovchi fermentning faol markazida o'zaro ta'sir qilish uchun zarur bo'lgan xirallik markazlariga ega emas. Shu sababli D-enantiomer qon aylanishida uzoqroq vaqt qolishi va shu bilan tegishli dorining ta'sir muddatini uzaytirishi mumkin. Ushbu tamoyilga asoslangan uzoq muddatli ta'sirga ega dorilarni yaratish imkoniyati o'z ta'sir mexanizmini xirallikka bog'liq bo'lgan oqsil asosli dorilar misolida namoyish etadi.

Bugungi kunda dunyodagi eng ko‘p sotiladigan dorilarning 50% dan ortig‘i xiral molekulalardir. Zamonaviy kimyoda asimmetrik sintez ya`ni faqat bitta kerakli izomerni olish fani rivojlangan bo‘lib, buning uchun 2001 va 2021-yillarda Nobel mukofotlari berilgan.

Shakar o‘rnini bosuvchi aspartam moddasining bir enantiomeri shirin, ikkinchisi esa achchiq bo‘ladi. Bu bizning tilimizdagi retseptorlar ham xiral ekanligini isbotlaydi.

Toza optik aktiv organik moddalarni, kimyoviy reaksiyalar orqali sintez qilingan ratsematdan, ajratishning quyidagi zamonaviy usullaridan foydalanish mumkin:

1. Kristallarni vizual tekshiruv orqali mexanik ajratish.

Bunday ajratish ratsematik shakl chap va o'ng aylantiruvchi kristallar aralashmasidan iborat bo'lgan hollarda mumkin. Aynan shu usul L. Pastyor tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u 1848 yilda tartrat kislotaning ratsematik shaklini ajratib olgan. (+)- va (–)-tartrat kislotalarining ammiak tuzlari turli kristall shakllarga ega bo'lganligi tufayli, u har bir enantiomerini alohida shaklda ajratib olishga muvaffaq bo'ldi.

2. Biokimyoviy usul, fermentativ reaksiyalarning stereospetsifikligiga asoslangan.

3. Kimyoviy usul, u ratsematik shakl (±)-HA ni optik faol reaktiv, masalan, (–)B•• bilan ishlov berishni o'z ichiga oladi, natijada yangi moddalar jufti — diastereomerlar hosil bo'ladi, ularni fizik xususiyatlardagi farqlar tufayli oson

ajratish mumkin. Shu tarzda olingan alohida diastereomerlardan enantiomerlar (+)-HA va (–)-HA ajratib olinadi.

4. Optik faol statsionar bosqichlarda ratsematlarning xromatografiyasi. 2–4-usullar amaliyotda eng keng qo'llaniladi.

## XULOSA

Molekulaning fazodagi birgina atomining o‘rni o‘zgarishi (o‘ng yoki chapga) moddaning shifo yoki zaharga aylanishini belgilab beradi. Bu kimyo va biologiyaning eng nozik va muhim nuqtalaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Зуфаров К.А. Гистология ва эмбриология: дарслик / К.А. Зуфаров. – Тошкент: Ибн Сино, 2005. – 320 б.

2. Рахимов Б.Ш. Органик бирикмаларнинг стереокимёси ва конформатсион таҳлили ўқув қулланма / Б.Ш. Рахимов. – Тошкент : Ўқитувчи, 2015. – 240 б.

3. Султонов А.М. Дори воситалари стереокимёси: ўқув қўлланма / А.М. Султонов. – Тошкент : Тиббиёт, 2018. – 186 б.

4. Элиел Э.Л. Стереохимия органических соединений / Э.Л. Элиел, С.Х. Вилен; пер. с англ. под ред. В.М. Потапова. – М. : Бином. Лаборатория знаний, 2007. – 1267 с.

5. Aboul-Yenein H.Y. The Impact of Stereochemistry on Drug Development and Use / H.Y. Aboul-Yenein, I.W. Wainer. – New York : John Wiley & Sons, 1997. – 642 p.

6. Ariëns Ye.J. Stereochemistry, a basis for sophisticated nonsense in pharmacokinetics and clinical pharmacology/ Ye.J. Ariëns // Yeuropean Journal of Clinical Pharmacology. – 1984. – Vol. 26. – P. 663–668.

7. Francotte Ye. Chirality in Drug Design and Development / Ye. Francotte, W. Lindner. – New York : Marcel Dekker, 2004. – 450 p.

8. Grob R.L. Modern Practice of Gas Chromatography / R.L. Grob, Ye.F. Barry. – 4th yed. – New Jersey : Wiley, 2004. – 1045 p.

9. Nguyen L.A. Chiral Drugs: An Overview / L.A. Nguyen, H. He, C. Pham-Huy // International Journal of Biomedical Science. – 2006. – Vol. 2, № 2. – P. 85–100.

10. Smith S.W. Chiral Drugs / S.W. Smith // Toxicological Sciences. – 2009. – Vol. 110, № 1. – P. 4–30.

11. Subramanian G. Chiral Separation Techniques: A Practical Approach / G. Subramanian. – Weinheim : Wiley-VCh, 2007. – 640 p.

12. Ўзбекистон Республикаси Давлат Фармакопеяси. И жилд. – Тошкент : Соғлиқни сақлаш вазирлиги, 2021. – 540 б.

13. С. Искандаров, А. Абдусаматов, Р. Шоймардонов. Органик кимё / - Тошкент-1979, “Уқитувчи” нашриёти – 615 б.

14. Konstantin keptenaru. Organicheskaya ximiya / - Kishineu – 2021. – 521 p.

15. В. Ф. Травень. Органическая химия / - Москва – 2005. – 727 p.

16. А. Терней. Современная органическая химия / в двух томах 1,2 / Издательство «мир» Москва 1981.- 686 p.

17. General chemistry 4/ Principles and modern applications / Tenth yedition 1303 p.

# SECONDS SAVE LIVES: HIGH-FIDELITY SIMULATION IN ADULT AND PEDIATRIC CARDIAC ARREST

Sofia Naaz

*Tashkent Medical Academy, MBBS Program*

***Abstract.*** *Cardiac arrest is one of the most critical emergencies in medicine, where every second determines life or death. This study evaluates high-fidelity simulations of adult and pediatric cardiac arrests, focusing on technical skills, CPR proficiency, clinical reasoning, leadership, and teamwork among MBBS students. Pediatric scenarios introduced complexity through weight-based dosing, airway challenges, and age-specific defibrillation protocols. Minute-by-minute observations recorded errors, hesitations, corrections, and participant reflections. Pre- and post-simulation surveys assessed confidence and clinical decision-making. Results demonstrated improved CPR quality, faster decision-making, and stronger team coordination. These findings highlight the critical value of simulation-based medical education in preparing future physicians for high-stakes emergencies.*

## Introduction

Cardiac arrest occurs when the heart suddenly stops functioning, leading to hemodynamic collapse and potential death without immediate intervention. Survival depends heavily on rapid recognition, CPR, defibrillation, airway management, and coordinated teamwork within the first crucial minutes.

Simulation-based training allows MBBS students to experience life-threatening emergencies safely, identify errors, enhance critical thinking, and develop leadership and teamwork skills.

Hypothesis:

Students exposed to high-fidelity adult and pediatric cardiac arrest simulations will demonstrate improved CPR proficiency, technical performance, confidence, and team coordination compared to pre-simulation baseline.

**Study Objectives**

1. Conduct adult and pediatric cardiac arrest simulations with minute-by-minute observations.

2. Evaluate CPR technique, technical accuracy, decision-making, and teamwork under stress.

3. Identify common errors, hesitation points, and opportunities for improvement.

4. Recommend strategies to integrate simulation-based training into MBBS curricula.

**Adult vs Pediatric CPR Guidelines**

| **Parameter** | **Adult** | **Pediatric** |
|---|---|---|
| Compression-Ventilation Ratio | 30:2 | 15:2 |
| Compression Depth | 5–6 cm | ~5 cm or 1/3 chest depth |
| Ventilation Rate | 2 breaths after 30 compressions | 2 breaths after 15 compressions |
| Epinephrine Dose | 1 mg IV/IO | 0.01 mg/kg IV/IO |

| | | |
|---|---|---|
| Defibrillation | 200–360 J | 2–4 J/kg |
| Key Challenges | Standard airway management | Weight-based dosing, airway access, age-specific defibrillation |

**Step-by-Step CPR Focus**

Adult CPR:

1. Check responsiveness and breathing
2. Call code / activate AED
3. Start compressions at 100–120/min, depth 5–6 cm, allow full chest recoil
4. Deliver 2 rescue breaths after 30 compressions
5. Attach AED and follow shock guidance
6. Continue cycles, rotating compressors every 2 minutes

Pediatric CPR:

1. Assess responsiveness, airway, breathing, and circulation
2. Call code, determine compression technique (1–2 rescuers)
3. Start compressions 100–120/min, depth ~1/3 chest diameter (~5 cm)

4. Deliver 2 rescue breaths after 15 compressions

5. Dose epinephrine 0.01 mg/kg IV/IO

6. Defibrillate at 2–4 J/kg as needed

7. Address airway challenges: bag-mask ventilation or intubation

Key Observation: Pediatric CPR requires precision, confidence, and teamwork, as hesitation or miscalculations can reduce survival.

**Materials and Methods**

Participants:

- 12 MBBS students (6 adult, 6 pediatric scenarios)
- Lead researcher: Sofia Naaz
- 2 assistants for observation, timing, and data recording

Simulation Setup:

- High-fidelity adult and pediatric mannequins
- AEDs, airway devices, bag-mask ventilation kits, IV/IO setups, emergency medications
- Simulated ER environment with alarms, monitors, and distractions

Procedure:

- Each scenario lasted 10 minutes
- Roles: team leader, compressor, airway manager, medication manager
- Adult scenario: sudden VF arrest
- Pediatric scenario: hypoxia-induced arrest with airway challenges
- Scenarios unscripted to mimic real-life unpredictability

Data Collected:

- Time to first compression & shock
- CPR quality (depth, rate, ventilation)
- Airway management proficiency
- IV/IO access & medication accuracy
- Team coordination & communication
- Participant reflections
- Pre- and post-simulation confidence survey

**Minute-by-Minute Observations**

| Minute | Adult Scenario | Pediatric Scenario | Skills Focus | Observations & Reflections |
|---|---|---|---|---|
| 0–1 | Recognize collapse | Recognize collapse | Situational awareness | Adult team immediately recognized VF; pediatric team hesitated |
| 1–2 | Call code, assign roles | Call code, assign roles | Leadership | Pediatric team initially unclear about roles; facilitator prompted |
| 2–3 | Start CPR 30:2 | Start CPR 15:2 | Compression & ventilation | Pediatric compressions slower; adult team efficient |
| 3–4 | AED attachment, rhythm analysis | AED attachment & energy calculation | Defibrillation timing | Pediatric shock miscalculated once, corrected after discussion |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4–5 | First shock & resume CPR | First shock & resume CPR | Timing, perfusion | Adult team efficient; pediatric team adjusted quickly |
| 5–6 | Bag-mask ventilation | Bag-mask / intubation | Airway management | Pediatric intubation delayed; adult airway handled effectively |
| 6–7 | IV/IO access, epinephrine | IV/IO access, epinephrine | Procedural precision | Pediatric dosing error corrected; adult dosing accurate |
| 7–8 | Monitor vitals & rhythm | Monitor vitals & rhythm | Critical thinking | Pediatric team cross-checked dosing; adult team recognized VF faster |
| 8–9 | Rotate rescuers | Rotate rescuers | Team coordination | CPR quality maintained; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | minor handover delays in pediatric team |
| 9–10 | Post-resuscitation care & debrief | Post-resuscitation care & debrief | Reflection & learning | Teams reflected on successes, errors, and "aha moments" |

High-Stakes Complications:

- Adult VF → asystole in 6th minute
- Pediatric airway obstruction due to secretions
- Multi-patient scenario to test prioritization
- Pediatric arrhythmia induced for advanced decision-making

**Results**

| **Metric** | **Adult** | **Pediatric** |
|---|---|---|
| Time to first compression (sec) | 18 | 20 |
| Time to first shock (sec) | 120 | 130 |

| | | |
|---|---|---|
| CPR quality (1–5) | 4.9 | 4.7 |
| Teamwork & communication (1–5) | 4.8 | 4.5 |
| Medication accuracy (%) | 100 | 85 |
| Airway management (1–5) | 4.9 | 4.6 |
| Confidence score pre-simulation | 3.1 | 2.9 |
| Confidence score post-simulation | 4.7 | 4.5 |

Statistical Insight:

- CPR quality improved by ~15% post-simulation
- Confidence scores improved by ~50%
- Minor errors in pediatric dosing were corrected in real time, highlighting the learning curve

Participant Reflections:

- "The first 10 seconds felt critical—I understood the real impact of hesitation."

- "Calculating pediatric doses under pressure tested my knowledge and nerves."
- "Team communication mattered more than individual skill; every voice was vital."
- "Seeing adult and pediatric CPR side-by-side taught me nuances textbooks never can."

**Discussion**

Key Insights:

- Every second counts; delays reduce survival probability
- Pediatric emergencies require precision, confidence, and knowledge of weight-based protocols
- Simulation improves technical skills, CPR quality, critical thinking, leadership, and teamwork

Errors Observed:

- Pediatric dosing mistakes
- Adult defibrillation delays
- Initial hesitation and role confusion in pediatric teams

Curriculum Implications:

- High-fidelity simulation should be a mandatory part of MBBS rotations
- Rotate students through adult and pediatric scenarios to build versatility
- Structured debriefing improves retention and confidence
- Include CPR step-by-step drills as part of hands-on teaching

Comparison with Literature:

- Berg RA et al., 2016: Pediatric resuscitation more complex than adult
- Neumar RW et al., 2015: First 10 minutes critical for survival
- Meaney PA et al., 2013: Simulation improves CPR quality and teamwork

**Future Directions**

- Compare simulation-trained vs non-trained students in real emergencies
- Expand simulations to multi-trauma, sepsis, anaphylaxis, and mass casualty events
- Integrate VR, AI mannequins, and interdisciplinary teamwork

- Develop simulation-based certification programs for MBBS students

**Conclusion**

The difference between life and death in cardiac arrest lies not just in knowledge, but how quickly and confidently that knowledge is applied. Adult and pediatric simulations demonstrated that real-time CPR performance, teamwork, and situational awareness define outcomes.

Small delays, hesitation, or miscommunication significantly affect survival, especially in pediatric cases. Simulation builds confidence, sharpens critical thinking, and prepares future doctors to act decisively when every second counts.

Seconds truly matter — investing in simulation-based training produces doctors capable of saving lives under pressure.

**References**

1. Neumar, R. W. et al. 2015 AHA Guidelines for CPR and ECC // Circulation. — 2015.
2. Berg, R. A. et al. Pediatric Advanced Life Support // Pediatrics. — 2016.
3. Sawyer, T. et al. Simulation in Medical Education: A Review // Simulation in Healthcare. — 2016.
4. Meaney, P. A. et al. CPR Quality: Improving Cardiac Resuscitation Outcomes // Circulation. — 2013.
5. Kleinman, M. E. et al. 2020 AHA Guidelines Update for CPR and ECC // Circulation. — 2020

# Digital Economy: Global Market and Legal Strategies

# O‘ZBEKISTONDA ICHKI VA TASHQI TURIZIMNI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Jo‘rayeva Zeboxon G‘ulomjon qizi

*Namangan davlat universiteti*

*jorayevaz586@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *So‘ngi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi, jumladan turizm sektori iqtisodiy o‘sishning muhim qismiga aylanib bormoqda. Mamlakatning boy tarixiy meroslari, madaniy ananalari, zamonaviy infratuzilmasi va geostrategik joylashuvi turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo’nalishlariga aylantirdi. Hukumat tomonidan ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida ichki va tashqi turizm bozori qayta shakillana boshladi, turistik mahsulotlar turlari kengaydi, xizmatlar sifati oshdi, turistlar oqimi sezilarli darajada ko‘paydi, hududlarda yangi turizm klasterlari yuzaga keldi. Mazkur maqolada ushbu islohotlarning iqtisodiy mohiyati, samaradorligi va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar;*** *Ichki turizm, tashqi turizm, turizm islohotlari, turizm infratuzulmasi, turizm klasterlari, Xalqaro sayyohlik oqimi, O‘zbeiston turizm salohiyati, barqaror turizm, turizm siyosati.*

***Annotation.*** *In recent years, the services sector, including the tourism sector, has become an important part of economic growth in the economy of Uzbekistan. The country's rich historical heritage, cultural traditions, modern infrastructure and geostrategic location have made tourism a priority of the national economy. Large-scale reforms are being carried out by the government aimed at the development of domestic and foreign tourism. As a result of this, the domestic and foreign tourism market began to reshape, the types of tourist products expanded, the quality of services increased, the flow of tourists increased significantly, new tourist clusters*

*appeared in the regions. In this article, the economic essence, effectiveness of these reforms and their impact on the national economy were analyzed.*

***Keywords;*** *domestic tourism, foreign tourism, tourism reform, tourism infrastructure, tourism clusters, international tourist flow, Uzbekistan tourism potential, sustainable tourism, Tourism Policy.*

***Аннотация****. В последние годы важной составляющей экономического роста в экономике Узбекистана становится сфера услуг, в том числе сектор туризма. Богатое историческое наследие, культурные традиции, современная инфраструктура и геостратегическое положение страны сделали туризм приоритетом национальной экономики. Правительство проводит широкомасштабные реформы, направленные на развитие внутреннего и въездного туризма. В результате этого начал переформатироваться внутренний и внешний туристский рынок, расширился ассортимент туристских продуктов, повысилось качество услуг, значительно увеличился поток туристов, в регионах возникли новые туристские кластеры. В данной статье проанализирована экономическая сущность, эффективность этих реформ и их влияние на национальную экономику.*

***Ключевые слова;*** *внутренний туризм, внешний туризм, реформы туризма, инфраструктура туризма, туристические кластеры, Международный туристский поток, туристический потенциал Узбекистана, Устойчивый туризм, туристическая политика.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez tarqaloyotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, xizmatlar sektorini kengaytiradi, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratadi, valyuta tushimini oshiradi, hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli tasir ko‘rsatadi. Shu jumladan O‘zbekiston ham bugungi kunda turizm sektoriga katta e’tibor qaratmoqda. So‘ngi yillarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy

shaharlarning jozibadorligi, milliy qadiryatlar, o‘ziga xos me’moriy obidalar va tabiiy landshaftlarning xilma-xilligi O‘zbekistoni mintaqadagi eng istiqbolli turistik yo‘nalishlardan biriga aylantirmoqda. O‘zbekiston ichki va tashqi turizmni yanada jaddallashtirish maqsadida turizm sohasida raqobatbardosh infratuzilmani yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, turistlar uchun qulay sharoitlar va zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa vizalar tizimini liberallashtirish, elektron xizmatlarni joriy etish, turizm klasterlari va erkin iqtisodiy hududlari kengaytirish, mahalliy aholining ichki turizm madanyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar sohani yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu xizmatlar O‘zbekistoning turistik jozibadorligini yanada oshirishga va xalqaro sayyohlar sonini yildan- yilga ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ichki turizmni rivojlantirish O‘zbekiston uchun iqtisodiy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Ichki sayyohlik oqimining o‘sishi xizmatlar sohasini kengaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholi daromadlarini oshiradi. Shu bilan birga, ichki turizm orqali mamlakatning turli hududlarida yashovchi aholining o‘z diyorining tarixiy-madaniy obidalari va tabiiy go‘shalari bilan tanishuvi milliy g‘urur va ma’naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonda ichki turizm bo‘yicha tadqiqotlar soni ortib bormoqda – mahalliy iqtisodchi va olimlar (A. Norchaev, S. Ro‘ziyev, O. Xamidov, B. Toraev va boshqalar) o‘z asarlarida turizm tarmog‘ini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratganlar. Biroq, ichki turizmning aynan iqtisodiy omillari, aholining sayohat qilish motivatsiyasi va to‘sqinlik qiluvchi muammolarini kompleks o‘rganishga ehtiyoj mavjud[1].

Turistlarning ichki turizmga bo‘lgan qiziqishining oshib borishi orqali sohada barqaror o‘sishni ta’minlash maqsadida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirishda ilmiy-uslubiy asoslarni takomillashtirishga

[1] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6395/4655 552 bet

qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan islohotlar doirasida turizm sohasiga alohida e’tibor qaratiladi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturi doirasida “Ichki turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali 2026 yilgacha ‘O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling’ dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshirish” maqsadiga erishish uchun vazifalar o’rganib chiqilgan[2].

Yuqoridagi mualliflar aytib o‘tkanidek ichki turizmni rivojlantirish hududning iqtisodiy barqarorligi va ichki sayohatchilar oqimining ortishiga sabab bo‘ladi bu esa nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratibgina qolmay mahalliy aholining tarixiy obidalarga bo‘lgan hurmatini yana bir karra oshishiga sabab bo‘ladi.

**Muhokama.** O‘zbekiston turizimni rivojlantirish maqsadida chuqur islohotlar olib bormoqda jumladan yaqinda Pirizident tomonidan tamal toshi qo’yilgan Samarqandagi Imom Al Buhoriy majmuasi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi bundan tashqari **infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi** turizm rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yangi mehmonxonalar, transport yo‘nalishlari, zamonaviy xizmat ko‘rsatish maskanlari sayyohlar oqimini oshirishga yordam bermoqda. Majmuani kengaytirish ishlari amalga oshirildi; jumladan masjid, maqbara, muzey, mehmonxonalar va boshqa turistik abyektlar qurilishi tugatildi. Masjid taxminan 10 000 kishini qamrab oladi. Muzey esa Imom al-Buxoriy hayoti va ilmiy merosi namoyish etadigan zamonaviy muzey xisoblanadi majmua maydoni taxminan 44 gektarni tashkil etadi. Majmua 19-mart 2026-yil ramazon bayrami munosabati bilan Prizident tomonidan ochildi majmuaga turistlar har kuni oqib kelmoqda. Majmua har yili turli mamlakatlardan ziyoratchilar kelib, ilmiy- marifiy, va ruhiy sayohatlarni amalga oshirishlari mumkin. Majmua faqat ziyoratchilar uchun emas balki ilm-ta’lim, marifat markazi sifatida ham o‘z ish faoliytaini olib boradi. Bu esa Islom tarixi va madanyatiga qiziqan turistlarni ham jalp qila oladi.

[2] https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/968/932

Bundan tashqari bayram munosabati bilan ochilgan ‘‘Islom Svilizatsiya markazi’’ ham ilk kunlardanoq tashrif buyuruv chilar bilan to‘ldi. Majmua Mamlakatning boy tarixi va kelajagini mujassam etgan. O‘zbekistonga yetkazib berilishi rejalashtirilgan ‘‘Jaloliddin Manguberdi’’ tezyurar poyezdi 2-maydan boshlab Toshkent- Urganch-Xiva yo‘nalishlarni tashiy boshlaydi. Ushbu yangi poyezd turistlarni qulay sayohat qilish imkonini beradi.

**Natijalar.** O‘zbekiston tarixida birinchi marta xorijiy sayyohlar soni rekord ko‘rsatkichlarni namoyish etmoqda -2025-yil aprel oyidan boshlab har oyda 1 milliondan ortiq xorijiy turistlar qabul qilinmoqda. Turizm qo‘mitasiga ko‘ra, joriy yilning to‘qqiz oyida O‘zbekistonga 8,6 milliondan ortiq xorijiy turist tashrif buyurdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 foizga ko‘p. O‘zbekiston turizmi tarixiy rekordlarni yangilamoqda. Ushbu ko‘rsatkich davlatlar kesimida - 2025-yilda post-pandemik 2022-yilga nisbatan turistlar oqimining o‘sishi Britaniyadan 2,6 baravar, Qatardan 6,2 baravar, AQSHdan 3 baravar, Fransiyadan 2,9 baravar, Rossiyadan 2,1 baravar, Vengriyadan 3,3 baravar, Germaniyadan 2,5 baravar, Polshadan 6,2 baravarga yetdi. Shuningdek, 2025-yilda turistik xizmatlar eksporti ham rekord darajaga -3,6 milliard AQSH dollaridan oshdi. 2025-yilning yanvar-iyul oylarida jami 6,3 mln nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan.

Ularning yosh bo‘yicha taqsimoti quyidagicha

- 0-18 yosh - 849 947 nafar;
- 19-30 yosh - 1 030 286 nafar;
- 31-55 yosh - 3 196 729 nafar;
- 56 yosh va undan kattalar -1 242 157 nafar.

2025-yil yanvar- may oylarida O‘zbekistonga 4,2 million nafar chet el fuqarolari sayohat uchun kelgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yil mos davridagiga qaraganda 1,4 million nafarga (48,2 foiz) ko‘p[3].

[3] https://daryo.uz/gqF2uE6Hg/

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yil O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni misli ko‘rilmagan tarzda ko‘paygan buning asosiy sababi esa O‘zbekistoning turizim salohiyati oshayotgani, turistik obyektlar sonining ko‘paygani va vizalar siyosatini soddalashishidir.

**Xulosa.** O‘zbekistonnig turizm sohasida olib borayotgan islohotlari qisqa muddat ichida sezilrli natijalarini ko‘rsatyapti, so‘ngi yillarda davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar davlatning turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ichki turizmni rivojlanishi esa aholining turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengayishi va xizmatlar bozorini yanada takomillashishiga sabab bo‘ldi. Tashqi turizm yo‘nalishida esa O‘zbekistoni jahon sahnasida xavfsiz va boy madaniy merosga ega davlat sifatida tanilishi, ko‘plab davlatlar bilan vizasiz rejimni joriy etilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa turizmni yanada rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar eshigidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Baxriddinovna T. N. Turizmni rivojlantirishning xorijiy tajribasi // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol. 3, Special Issue 28. – B. 830–833.
2. Baxriddinovna T. N. O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari va turistik salohiyati // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol. 3, Special Issue 46. – B. 578–580.
3. Turizm va yashil iqtisodiyotga oid maqola [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6395/4655 – Murojaat qilingan sana: 31.03.2026.
4. Ilmiy maqola [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/968/932 – Murojaat qilingan sana: 31.03.2026.
5. Yangilik maqolasi // Daryo.uz [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://daryo.uz/gqF2uE6Hg/ – Murojaat qilingan sana: 31.03.2026.

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMAT KO'RSATISHNING IQTISODIY SAMARADORLIK OMILLARI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

*"Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" NTM E-mail:*

*muhayyo.ravshanova@mail.ru*

Nurmatov Boburmirzo Abdiraufovich

*"Iqtisodiyot va pedagogika universiteti" NTM*

*E-mail: boburmirzonurmatov218@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Maqolada makatabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillar tizimli tahlil qilingan.Tadqiqotda autsorsingning turlari bo'lgan, ovqatlanish, tozalash, xavfsizlik, transport hamda texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida autsorsingni joriy etishning iqtisodiy afzalliklari ochib berilgan.Tadqiqotda turli metodlardan foydalanilgan va xarajatlarni qisqartirish, resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish jarayoni ko'rib chiqilgan.Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlarini kengaytirish orqali byudjet yuklamasini kamaytirish, pedagogik faoliyatga e'tiborni kuchaytirsh va ta'lim sifati barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.*

***Kalit so'zlar****: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, iqtisodiy samardorlik,autsorsing, autsorser, optimallashtirish, xizmat sifati, infratuzilma, mexanizm.*

***Аннотация.*** *В статье систематически анализируются факторы, определяющие экономическую эффективность использования услуг аутсорсинга в организациях дошкольного образования.*

*Исследование выявило виды аутсорсинга и экономические выгоды от его внедрения в таких областях, как общественное питание, уборка, охрана, транспорт и техническое обслуживание. В исследовании использовались различные методы, и рассматривался процесс снижения затрат и организации рационального использования ресурсов. Результаты исследования показывают потенциал для снижения бюджетной нагрузки, повышения внимания к педагогической деятельности и обеспечения стабильности качества образования за счет расширения услуг аутсорсинга в дошкольных образовательных организациях Республики Узбекистан.*

***Ключевые слова:*** *дошкольные организации, эффективность, аутсорсинг, аутсорсер, оптимизация, качество, инфраструктура, механизм.*

***Abstract.*** *The article systematically analyzes the factors that determine the economic efficiency of using outsourcing services in preschool educational organizations.The study reveals the economic benefits of implementing outsourcing in the areas of nutrition, cleaning, safety, transport, and maintenance, which are types of outsourcing. The study used various methods and examined the process of reducing costs and organizing the rational use of resources. The results of the study show the potential for reducing the budget burden, increasing focus on pedagogical activities, and ensuring the stability of the quality of education by expanding outsourcing services in preschool educational organizations in the Republic of Uzbekistan.*

***Keywords:*** *preschool organizations, efficiency, outsourcing, outsourcer, optimization, quality, infrastructure, mechanism.*

**Kirish (Introduction)**

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida autsorsing xizmat ko‘rsatish tizimlaridan foydalanilmoqda. Bu model o’zining samardorligi va qulayligi sababli tez ommalashmoqda.Ayniqsa, maktabgacha ta’lim va undan keyingi ta’lim tashkilotlarda autsorsingning qo’llanishi yuqori sifatli malakaga ega bo’lgan kadrlar masalasi va sog‘lom, kaloriyaga boy va tabiiy mahsulotlar bilan ta’minlash darjasini oshiradi.Bu esa millatning genofondini saqlash hamda ta’lim-tarbiyani xalqaro standartlarga mos keladigan darajaga olib chiqishda muhim ro’l o’ynaydi.

So’ngi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga hukumatimiz tomonidan har doimgidan ham ko’proq e‘tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari respublikmizdagi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bosqichi hisoblanadi.Hukumatimiz tomonidan bu sohaga xususiy sektor jalb qilindi va davlat-xususiy sherikchilik asosidagi bog’chalar ko’payib, 2024 yilning yanvar oyida 3-7 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’limga qamrab olish darajasi 74% ni tashkil etdi.Bu ko’rsatgichni 2026-yilda 80% ga yetkazish va prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan e’lon qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilga kelib bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlariga to’liq qamrab olish rejlashtirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda bolalarni qamrovi qancha kengaygani sari faoliyatda muammolarga duch kelinishiga olib keladi.Bular:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlarga yo‘naltirigan ta’lim muhitini yaratish
- yuqori malaka toifasiga ega bo’lgan hamda o‘z kasbining sirlarini chuqur egallagan kadrlar (masalan, psixolog, logoped)lar yetishmovchiligi
- mutaxassislar tomonidan tuzilgan ovqatlanish ratsionini mahsulotlar bilan ta’ minlash darajasining sustligi

Bu muammolarni hal qilish uchun O’zbekiston iqtisodiyotiga yangi kirib kelgan autsorsing tizimi yordam beradi.Bu tizimni qo’llash orqali yuqoridagi muammolarga optimal yechimlar berish mumkin.Autsorsing xizmat ko‘rsatish

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqori samaradorlikga ega va bu tizim faoliyatdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Lekin shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish kengayib borayotgan bo’lsada, ushbu tizimning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillar yetarli darajada ilmiy asosda tahlil qilinmagan.Xususan, autsorsing xizmatlarininig mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xizmatlarning moliyaviy xarajatlarini optimallashtirish jihatlari mavjud bo’lsa-da, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida muayyan muammolarga duch kelinmoqda.

Ushbu tadqiqotimizning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtsiodiy omillarni aniqlash, ularni tizimlashtish hamda autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlanish va autsorsing xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-yanvardagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2025) autsorsing xizmat ko‘rsatishni yangi pog‘onaga olib chiqdi. Autsorsing xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorlik omillari va ularning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amal qilinishi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xususan, Ergasheva (2023) o‘z ilmiy tadqiqotlarida autsorsing xizmatlarini baholash mexanizmlarini tushuntirib bergan hamda sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarini tavsiflab bergan. Tadqiqotchi Xamidov (2025) maktabgacha ta’lim muassasalarida oziq-ovqat, xavfsizlik va xo‘jalik xizmatlarini autsorsing orqali tashkil etish hamda ularning davlat byudjetiga ta’siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib

borgan. Xamrayeva (2025) maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni o‘rgangan. Quvondiqov (2025) davlat maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy tadqiqotchilar Romero, Sandefur va Sandholtz (2020) Liberiyada davlat ta’lim tashkilotlarini xususiy sektor boshqaruviga topshirish orqali autsorsingning ta’lim samaradorligiga ta’sirini eksperimental usulda tahlil qilgan. Olimlarning izlanishlarida autsorsing modeli orqali ta’lim sifati va samaradorlik ko‘rsatkichlari baholangan.

Mamlakatimizda autsorsing xizmat ko’rsatish sohasi bo’yicha amaliy va nazariy tadqiqotlarning yetishmasligi, ushbu tizimning keng imkoniyatlarini Respublika miqiyosida joriy qilishga to‘sqinlik qilmoda deb hisoblaymiz.Muammoni hal qilish uchun xizmat ko‘rsatishning autsorsing modeli yuzasidan tadqiqotlarni ko’paytirish va ularni amaliyotga joriy qilish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida autsorsing xizmatlari sohasida empirik va nazariy tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa-da, ushbu tizimning amaliyotga joriy etilishi izchil davom etmoqda. Autsorsingning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha ilmiy izlanishlarning kamligi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu tizimni chuqur va kompleks tadqiq etishni taqozo etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)**


Autsorsing xizmatlaridan foydalanish jarayonining moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar monografik kuzatuv, tizimli yondashuv bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida autsorsing xizmatlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar deduktiv va induktiv usullar bilan tahlil qilinadi.

**Tahlil va natijalar ( Analysis and results)**

Autsorsingning so‘zi inglizchada “Outsourcing” so'zidan olingan bo'lib, “tashqaridan resurs olish” yoki “tashqi manbalarga topshirish” degan ma'noni anglatadi. Bu tashkilot o'zining asosiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan yordamchi funksiyalarini tashqi ixtisoslashgan kompaniyalarga shartnoma asosida topshirish jarayonidir.

Maktabgacha ta’lim tizimida autsorsing deganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining asosiy vazifasi bo‘lgan- bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishga to‘liq e’tibor qaratish uchun, qo‘shimcha xizmatlarni professional tashqi kompaniyaga topshiradi.

Autsorsingning jahon tajribasida ovqatlanish, tozalash xizmatlari, xavfsizlik xizmatlari, transport xizmatlari va texnik xizmat ko‘rsatish kabi xizmatlar autsors xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlarga topshirilgan.(1-rasm)




1-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsors xizmat ko’rsatish turlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ovqatlanish xizmatlarini autsorsing asosida amalga oshirish iqtisodiy jihatdan yuqori samardorlikni ta’minlab, moliyaviy xarajatlarning optimallashtirilishi, professional xizmat ko‘rsatish orqali sifat ko‘rsatkichlarining oshishi, ta’lim muassasasi rahbariyatining asosiy pedagogik faoliyatga resurslarni yo‘naltirishi, mavsumiy moslashuvchanligi hamda operatsion va moliyaviy xavflarning xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasida taqsimlanishi kabi ustunliklarni yuzaga keltiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ovqatlanish autsorsinging bilan tashkil qilishda xarajatlar bir necha yo‘llar bilan kamayadi.Birinchidan, katta hajmdagi xaridlar(bulk purchasing) qilish orqali bir kunlik ovqat narxi 20-25% gacha

arzonlshitirilishi mumkin.Chunki, bir autsorser 20 ta maktabgacha ta’lim tashkilotiga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib bersa, ingredientlar ulgurji narxda sotib olinadi.Ikkinchidan, ish haqi va imtiyozlar kamayishi.Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z oshpazlari va yordamchilarini ishlatish o‘rniga, autsorser o‘z xodimlarini (past ish haqi, kam imtiyozlar bilan) ishlatadi.Pensiya, sug’urta va boshqa xarajatlar tashkilotning zimmasiga tushmaydi.Uchinchidan, Oshxona va jihozlar xarajatlari kamayishi.Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti oshxonasini ta’mirlash, jihozlar sotib olish va saqlash autsorserga o‘tadi.Bu bilan yillik 10-15 million so‘m va undan ortiq ta’mirlash xarajatlari tejaladi.To‘rtinchidan, boshqaruv va monitoringning optimallashtirilishi.Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariyati ovqatlanish bilan bog‘liq jarayonlarni(menyu, yetkazib berish va boshqalarni) autsorserga topshiradi.Buning natijasida adminstrativ xarajatlar kamaydi.

Bundan tashqari, autsorsing xizmat ko’rsatishni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ovqatlanish tizimida qo‘llash bir necha qulayliklarni ham keltirib chiqaradi va bu orqali yuqori samardorlikka erishiladi.Autsorisng xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar faqat ovqatlanish sohasiga ixtisoslashgan bo‘ladi.Ular davlat tomonidan “Yagona taomnoma” va sanitariya-gigiyena talablariga qat’iy amal qiladi.Ushbu kompaniyalarda professional oshpazlar, texnologlar va sanitariya xodimlari mavjud bo‘lib, tayyorlangan taomlar brakeraj komissiyasi tomonidan muntazam tekshiriladi.Natijada bolalar uchun ovqat sifati va xavsizligi ta’minlanadi. Autsorsing joriy qilinganidan so‘ng pedagog va tarbiyachilar ovqat tayyorlash va taqsimlash bilan band bo‘lishmaydi.Bu holat ularga o‘zlarining asosiy vazifasi bo‘lgan- ta’lim va tarbiya jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi.Tarbiyachi ovqat bilan bog‘liq tashkiliy ishlar bilan band bo‘lmasligi tarbiyachilarning bolalar bilan ko‘proq mashg‘ulot o‘tkazishini ta’minlaydi.Autsorsing bilan shug‘illanuvchi tashqi provayderlarning mavsumiy va tashkiliy o‘zgarishlarga tez moslasha olishi, ularning ovqatlanish hajmi va menyuni ehtiyojdan kelib chiqib o‘zgartirish imkoniyatini beradi.Qish mavsumida

maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari kaloriyali va to‘q tutuvchi ovqatlarga ehtiyoj sezadi.Mas’ullar menyuni ehtiyojga qarab o‘zgartirib, sho‘rvalar, dukkali va xamirli taomlarni ko‘paytiradi.Yozda esa yengil va vitaminlarga boy taomlarni tashkil qiladi.

Xo‘sh maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tozalash xizmatlari(klining, binolarni tozalash)ni autsors xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarga topshirish qanday iqtisodiy samara beradi?!

Xarajatlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.Bunda, mehnat xarajatlarining qisqarishi va moddiy-texnik xarajatlarning kamayishi jarayoni yuz beradi. Agar tozalash xizmati maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘zi tomonidan tashkil etilsa, unda quyidagi doimiy xarajatlar muvjud bo’ladi:

- shtat birligi(farroshlar),
- ish haqi va ijtimoiy ajratmalar,
- mehnat ta’tili va kasallik varaqalari,
- kadrlarni boshqarish xarjatlari

Autsorsing xizmat ko‘rsatish sharoitida esa, maktabgacha ta’lim tashkiloti faqat ko‘rsatilgan xizmat uchun shartnoma asosida haq to‘laydi.Natijada, doimiy xarajatlar o‘zgaruvchan xarajatlarga aylanadi, byudjet yuklamasi kamaytiriladi va va umumiy eksplutatsion xarajatlar qisqaradi.Maktabgacha ta’lim tashkiloti ichki tozalash xizmatini o‘zi tashkil qilganda tozalash vositalari, maxsus jihozlar(changyutgich, pol yuvish texnikasi) va dezinfeksiya vositalarini mustaqil xaridini amalga oshiradi.Bu ish autsorserga topshirilganda yuqoridagi vositalarni ulgurji narxlarda sotib olinadi va xizmat yuqori texnologik darajada ta’minlanadi.

Xizmat sifatining va sanitariya xavsizligining oshishi yuz beradi. Bunda, autsors klining kompaniyalari mavjud sanitariya-gigiyena normalari, dezinfeksiya protokollari va ekologik toza hamda bolalar sog‘ligiga xavf tug’dirmaydigan vositalardan foydalanish talablariga rioya qiladi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida

o‘yin xonalari, yotoqxona va oshxona hududlari turli darjadagi sanitariya talablariga ega.Autsorser bu hududlarni differensial tozlash texnologiyasi asosida tozalaydi.

Boshqaruv samarodorligi oshadi va resurslarni qayta taqsimlash jarayoni yuz beradi. Bunda, rahbariyat yuklamasi kamayadi, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariyati xodimlarni nazorat qilish, tozalash sifati uchun bevosita javobgarlik va moddiy ta’minot masalalaridan qisman ozod bo’ladi.Natijada, boshqaruv resurslari ta’lim sifatini oshirish, pedagoglar malakasini oshirish hamda innovatsion dasturlarni joriy etishga yo’naltiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xavfsizlik xizmatlarini autsorsing qilish - bu maktabgacha ta’lim tashkilotida hududini qo‘riqlash, kirish-chiqishni nazorat qilish, videokuzatuv tizimlarini boshqarish va favqulodda holatlarga tezkor javob berish funksiyalarini ixtisoslashgan xavfsizlik kompaniyalariga topshirishdir.

Bu jarayon iqtisodiy jihatdan institutsional samaradorlik va xavfsizlik kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mulkka zarar yetishi, noqonuniy kirish hamda texnik jihozlarning o‘g‘irlanishi kabi holatlar potensial iqtisodiy yo‘qotishlar manbai hisoblanadi.Autsorser xavfsizlik kompaniyalari 24/7 professional qo‘riqlash, doimiy monitoring va tezkor reaksiya guruhlari orqali ushbu xavflar minimallashtiriladi.Natijada, kutilayotgan zarar kamayadi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.Xavsizlik xizmatlari tashkil etilgada maktabgacha ta’lim tashkilotlari videokuzatuv uskunalari, signalizatsiya tiimlari, server va texnik xizmat uchun byudjetdan katta mablag‘ ajratishi kerak.Autsorsing sharoitida texnik infratuzilma autsorserlar tomonidan taqdim etilishi va amortizatsiya va modernizatsiya xarajatlari o‘z zimmalariga olinishi kapital xarajatlar kamayib, moliyaviy resurslar boshqa ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi.Mehnat bozorida xavfsizlik sohasida malakali qo’riqchilarning yetishmovchiligi va kadrlar almashinuvi yuqori darajada bo‘lishi kuzatiladi.Autsorser kompaniyalar kadrlarni tanlash, sertifikatsiyalash, malaka oshirish masalalarini o‘z zimmasiga oladi.Bu

maktabgacha ta’lim tashkiloti uchun kadrlar bilan bog‘liq tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi.Xavsizlik darjasining oshishi ota-onalar ishonchini kuchaytiradi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini nufuzini oshiradi, talab esa barqarorlashadi.Natijada, uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Bolalarni tashish xizmatlari yuqori darajadagi: xavfsizlik, logistika, texnik va huquqiy mas’uliyat talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Ushbu xizmatlarni autsorsingga o‘tkazish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining transport bilan bog‘liq funksiyalarini ixtisoslashgan tashuvchi tashkilotlarga topshirishni anglatadi.

Bolalarni tashish jarayonida yuzaga keladigan asosiy iqtisodiy xavflar quyidagilardan iborat:

- yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq zararlar;
- texnik nosozliklar;
- huquqiy javobgarlik va kompensatsiya xarajatlari.

Autsorser kompaniyalar professional haydovchilar, muntazam texnik ko‘rikdan o‘tgan transport vositalari, sug‘urta va javobgarlik mexanizmlari orqali ushbu risklarni kamaytiradi. Natijada, kutilayotgan zarar miqdori sezilarli darajada pasayadi.Agar maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘zi tomonidan tashkil etilsa, transport vositalarini sotib olish, saqlash va ta’mirlash, amortizatsiya hisobini yuritish kabi majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishiga to‘g‘ri keladi.Autsorsing xizmat ko‘rsatish tizimi bu mammoni hal etadi.Bu bilan byudjet mablag‘ining katta qismi tejalib qoladi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida transport xizmatining autsorsing asosida tashkil etish ushbu xizmatning barqaror va aniq ishlashini ta’minlaydi. Bu bilan esa, ota-onalar uchun vaqt tejaladi, bolalarning davomati yaxshilanadi, kechikishlar bilan bog‘liq tashkiliy muammolarning kamayishini ta’minlaydi.Autsorsing sharoitida transport xizmat ko‘rsatishda qatnovlar sonini tezkor oshirish yoki qisqartirish, yangi hududlarni qamrab olish va mavsumiy yuklamalarga moslashish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida texnik xizmat ko‘rsatish autsorsingi - bu bino-inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari (elektr, issiqlik, suv ta’minoti, kanalizatsiya, ventilyatsiya), shuningdek asbob-uskunalarning texnik sozligini ta’minlash vazifalarini ixtisoslashgan tashqi tashkilotlarga topshirishdir.

Bu yondashuv aktivlar hayotiy siklini boshqarish va texnik risklarni minimallashtirish tamoyiliga asoslanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ichki texnik xizmat yetarli darajada tashkil qilinmasa, jihozlar tez eskiradi hamda favqulodda nosozliklar ko‘payadi.Buning natijasida, rejalashtirilmagan xarajatlar yuzaga keladi.Tashkilot o‘z faoliyatida autsorsingni qo‘llash orqali bu muammolarga yechim topadi ya’ni autsorser kompaniyalar profilaktik xizmat ko‘rsatish, reja asosida diagnostika va texnik reglamentga rioya qilish orqali aktivlarning ishlash muddati uzaytiradi.Natijada, asosiy vositalarni tez-tez yangilash zarurati kamayadi, kapital xarajatlar kechiktiriladi. Muhandislik tizimlari murakkab texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.Bular:

- avtomatlashtirilgan isitish tizimlari,
- energiya tejamkor qurilmalar,
- zamonaviy xavfsizlik va monitoring tizimlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarkibida yuqoridagi texnologiyalar bo’yicha yuqori malakali mutaxassislarni saqlash iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi.Ixtisoslashgan bilimli mutaxassislardan foydalanish, bu kamchilikni barataraf etadi va xizmat sifatini oshiradi.

**Xulosa va takliflar(Conclusion and suggestions)**

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarali boshqaruv modeli hisoblanadi. Autsorsing orqali ovqatlanish, tozalash, xavfsizlik, transport va texnik xizmat ko‘rsatish funksiyalarini ixtisoslashgan tashqi subyektlarga topshirish

natijasida doimiy xarajatlarning qisqarishi, moliyaviy resurslarning optimallashtirilishi va boshqaruv yuklamasining kamayishi ta’minlanadi.

Autsorsing xizmat ko‘rsatish tizimi pedagog - tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi jarayonlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu holat bolalarga berilayotgan ta’limning sifatili darajada bo’lishi hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotining umumiy faoliyatining samaradorligi oshishiga yordam beradi. Shuningdek, autsorsing risklarni taqsimlash, mavsumiy moslashuvchanlik va aktivlarning xizmat muddatini uzaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab autsorsingni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo’llar ekanmiz quyidagi takliflarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlarini joriy etish va baholash bo’yicha metodik ko’rsatmalar ishlab chiqish zarur.
- autsorser bilan shartnoma tuzishda xarajatlarni tejash darjasi, xizmat sifati, risklarni kamaytirsh va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- autsorserlar faoliyati ustidan muntazam ravishda moliyaviy va sifat monitoringini amalga oshirish kerak.
- qishloq va shahar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlarini tashkil etishda hududiy infratuzulma va logistika imkoniyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi.
- ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish orqali, kelgusida autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini amaliy va ekonometrik usullar asosida baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zarur.
-

**Adabiyotar ro‘yxati**

1. Ergasheva, N. R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanish sifatini baholash // Innovatsion texnologiyalar. — 2023. — 51(3).

2. Romero, M., Sandefur, J., Sandholtz, W. A. Outsourcing education: Experimental evidence from Liberia // American Economic Review. — 2020. — Vol. 110, No. 2. — P. 364–400.

3. Xamidov, A. Ch. Maktabgacha ta’lim muassasalarida autsorsing faoliyatini moliyalashtirishda ilg‘or xorijiy tajribalar // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. — 2025. — 3(11).

4. Xamrayeva, N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar // Journal of Uzbekistan’s Development and Research (JUDR). — 2025. — 1(1).

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 1-son qaror, 6-yanvar, 2025.

# MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Toshev Nurbek Janon o‘g‘li

*Qarshi davlat universiteti*

*e-mail:* ***toshevnurbek497@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Xorijiy, MDH va milliy ilmiy yondashuvlar asosida turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanib, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida mintaqaviy turizmni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarurligi ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *mintaqaviy iqtisodiyot, turizm samaradorligi, barqaror rivojlanish, metodologik yondashuv, turizm klasteri, destinatsiya, TALC modeli, Triple Bottom Line, hududiy boshqaruv, innovatsiya, infratuzilma, raqamli texnologiyalar.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы повышения эффективности туризма в контексте устойчивого развития региональной экономики. На основе зарубежных, СНГ и национальных научных подходов определены приоритетные направления развития туризма и обоснованы механизмы повышения его экономической, социальной и экологической эффективности. Исследование показывает необходимость применения комплексного подхода к развитию регионального туризма.*

***Ключевые слова:*** *региональная экономика, эффективность туризма, устойчивое развитие, методологический подход, туристический кластер,*

*дестинация, модель TALC, тройная нижняя линия, региональное управление, инновации, инфраструктура, цифровые технологии*

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of increasing the efficiency of tourism in the sustainable development of the regional economy. Based on foreign, CIS and national scientific approaches, priority areas of tourism development are identified, and mechanisms for increasing its economic, social and environmental efficiency are substantiated. The study shows the need to apply an integrated approach to the development of regional tourism.*

***Keywords:*** *regional economy, tourism efficiency, sustainable development, methodological approach, tourism cluster, destination, TALC model, Triple Bottom Line, regional management, innovation, infrastructure, digital technologies.*

**Kirish.** Hozirgi globallashuv sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xizmatlar sohasi tarkibida muhim o‘rin egallovchi turizm tarmog‘i hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki bandlikni ta’minlash, infratuzilmani rivojlantirish va hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, turizmni barqaror rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning nazariy va metodologik jihatlari xorijiy, MDH va milliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, asosida xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan klaster yondashuvi, destinatsiyaning hayot sikli modeli (TALC) hamda “Triple Bottom Line” konsepsiyasi turizmni barqaror rivojlantirishning muhim nazariy asoslarini tashkil etadi. Shu bilan birga, MDH olimlari tomonidan turizmni mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida boshqarish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish va hududiy rejalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida esa turizmni rivojlantirish masalalari milliy sharoit va hududiy xususiyatlardan kelib chiqib, infratuzilma, innovatsiya,

klasterlash va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda turizm samaradorligini kompleks baholash, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarini yagona metodologik yondashuv asosida integratsiyalash masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada turizmni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodologik yechimlar asoslab beriladi.

**Asosiy qism.** Mintaqaviy turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy olimlar, xususan, M. Porter, P. Romer, J. Elkington va R. Butlerlarning ilmiy qarashlari turizmni iqtisodiy tizimning muhim drayveri sifatida asoslashda muhim metodologik poydevor yaratadi. Jumladan, Porterning klaster nazariyasi hududiy turizmni raqobatbardosh tizim sifatida shakllantirish, xizmatlar zanjiri va infratuzilmani integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Butlerning TALC modeli esa destinatsiyalarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash orqali turizmni boshqarishning strategik bosqichma-bosqich yondashuvini taklif etadi. Shuningdek, Elkington tomonidan ilgari surilgan “Triple Bottom Line” konsepsiyasi turizmni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanat asosida rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuvlar mintaqaviy turizmni kompleks baholash va barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslarini shakllantiradi.

MDH olimlari, jumladan, V. A. Kvartalnov, N. I. Kabushkin, L. V. Vasilyeva va E. A. Grechyshkina tadqiqotlarida turizmni mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi elementi sifatida boshqarish masalalari keng yoritilgan. Ularning ilmiy ishlari turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, hududiy rejalashtirish va boshqaruv instrumentlari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xususan, Kabushkinning menejment yondashuvi turizm xizmatlari sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, Vasilyeva va Grechyshkina

tomonidan ishlab chiqilgan mexanizm modellari hududiy turizmni strategik boshqarish va indikatorlar asosida baholash imkonini beradi. Bu yondashuvlar turizmni davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston olimlari, jumladan, S. A. Abduhamidov, M. T. Alimova, M. M. Shirinova va M. Karimov tadqiqotlarida esa mintaqaviy turizmni rivojlantirish masalalari milliy sharoit va hududiy xususiyatlar asosida chuqur tahlil qilingan. Ular tomonidan taklif etilgan yondashuvlarda turizmni rivojlantirish infratuzilma, innovatsiya, klasterlash va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Xususan, Alimovaning klaster yondashuvi turizm xizmatlari zanjirini samarali tashkil etishga xizmat qilsa, Karimovning empirik modellari (jumladan, SEM) turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Shuningdek, Shirinova tomonidan xalqaro tajribani moslashtirish asosida ishlab chiqilgan barqaror turizm modellari O‘zbekiston sharoitida samarali rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, milliy olimlar yondashuvlari amaliy yo‘naltirilganligi va hududiy rivojlanish siyosati bilan bevosita integratsiyalashganligi bilan ajralib turadi.

**1-jadval**

**Mintaqaviy turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy, MDH va O‘zbekiston ilmiy maktablarining taqqoslama tahlili**

| **Taqqoslash mezoni** | **Xorijiy olimlar (global maktab)** | **MDH olimlari** | **O‘zbekiston olimlari** |
|---|---|---|---|
| Tadqiqot markazi | Turizmning **iqtisodiy ta’siri**ni aniq o‘lchash (impact → net effect), destinatsiya dinamikasi, | Turizmni **mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimi**ning elementi sifatida boshqarish (mexanizm, | Turizmni **hududiy rivojlanish siyosati** bilan bog‘lash: infratuzilma, bozor, klaster, institutsional mexanizmlar, amaliy tavsiyalar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | barqaror turizm nazariyasi | rejalashtirish, hududiy tahlil) | |
| Asosiy metodlar | IO/multiplikator (klassik), **CGE** (net effect), destinatsiya **TALC**, barqaror turizm konseptual ramkalari | Ko‘proq **tashkiliy-iqtisodiy mexanizm**, indikatorlar va rejalashtirish; turizm iqtisodiyoti/menejmenti bo‘yicha darslik maktabi | Maqola/dissertatsiyalarda **infratuzilma–innovatsiya–raqamli platforma** omillari, bozor tahlili, hududiy dasturlar (ko‘pincha amaliy-analitik) |
| “Mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni”ni o‘lchash | “Turist xarajati → tarmoqlararo tarqalish”ni batafsil ko‘rsatadi (IO) ; CGE bilan resurs cheklovi va narxlar hisobga olinadi | Sektorning rolini ko‘proq **daromad–bandlik–xizmatlar bozori** orqali izohlaydi; o‘quv-metodik ishlar keng | Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni, yo‘nalishlari va ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri o‘quv-amaliy ko‘rinishda beriladi |
| Barqarorlik konsepsiyasi (TBL/ESG) | “Barqaror turizm” konseptual bazasi kuchli (TBL muvozanat) ; ekologik/siyosiy cheklovlar ham ko‘riladi | Barqaror turizmni “**boshqaruv mexanizmi + indikatorlar**” orqali operatsionallashga intiladi (hududiy boshqaruv) | Barqarorlik ko‘proq **amaliy chora**lar (infratuzilma, raqamli yechimlar, xizmat sifati) bilan bog‘lanadi; indikatorlar ko‘pincha to‘liq standartlashmagan |
| Destinatsiya boshqaruvi va dinamikasi | Destinatsiya “hayot sikli” (TALC) orqali bosqichma-bosqich boshqaruv mantiqini beradi | Hududiy rejalashtirish va boshqaruvning tashkiliy jihatlari kuchli (davlat–biznes hamkorligi, institutlar) | Hududiy dasturlar, klaster va infratuzilma bo‘yicha tavsiyalar kuchli; ko‘pincha “qanday joriy etish”ga yaqin |
| Kuchli tomoni | Metodlar **qat’iy**, xalqaro | Hududiy boshqaruv | Mahalliy sharoit (data, institutlar, infratuzilma)ni |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | taqqoslashga mos, “net impact”ga yaqinlashadi | mexanizmlari, amaliy rejalashtirish va o‘quv-metodik baza keng | yaxshi biladi; tezkor amaliy yechimlar beradi |
| Cheklov (tanqidiy) | CGE/ilg‘or metodlar ma’lumot-talabchan; hamma hududda to‘liq qo‘llash qiyin | Ko‘p ishlar **normativ** bo‘lib qolishi (o‘lchov + sof ta’sir) yetarli darajada “net”ga tozalanmasligi mumkin | Empirik model va indikatorlar ba’zan fragmentar; xalqaro standart (taqqoslanadigan) o‘lchovlar bilan integratsiya kuchaytirilishi kerak |

Jadvalda mintaqaviy turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy, MDH va O‘zbekiston ilmiy maktablarining metodologik yondashuvlari kompleks tarzda taqqoslangan bo‘lib, ularning har biri turizmni o‘rganishda turli ilmiy ustuvorliklarga ega ekanligi aniqlanadi. Xususan, xorijiy olimlar tadqiqotlarida asosiy e’tibor turizmning iqtisodiy ta’sirini aniq o‘lchashga, ya’ni “impact → net effect” yondashuvi orqali sof iqtisodiy natijalarni aniqlashga qaratilgan. Bu yerda IO (input–output) va CGE (computable general equilibrium) modellari orqali turist xarajatlarining tarmoqlararo tarqalishi, resurslar cheklovi va narxlar muvozanati chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, destinatsiya rivojlanishining bosqichlarini ifodalovchi TALC modeli va barqaror turizmning TBL (Triple Bottom Line) konsepsiyasi orqali turizmni uzoq muddatli va muvozanatli rivojlantirishning nazariy asoslari yaratilgan.

MDH olimlari yondashuvida esa turizm asosan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining tarkibiy elementi sifatida ko‘rib chiqilib, boshqaruv mexanizmlari, hududiy rejalashtirish va indikatorlar tizimi orqali tahlil qilinadi. Ushbu maktabda turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni daromad, bandlik va xizmatlar bozori orqali izohlanib, ko‘proq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va davlat–xususiy sektor hamkorligiga urg‘u beriladi. Barqarorlik masalasi ham asosan boshqaruv vositalari va indikatorlar tizimi orqali operatsionallashga intiladi. Biroq ayrim tadqiqotlarda turizmning sof iqtisodiy ta’sirini aniqlash (net effect) yetarli darajada chuqur

hisoblanmasligi, ya’ni metodologik jihatdan global modellarga nisbatan kamroq aniqlik kuzatiladi.

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida esa mintaqaviy turizmni rivojlantirish masalasi ko‘proq amaliy yo‘naltirilgan holda, hududiy rivojlanish siyosati, infratuzilma, klasterlash, innovatsiya va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Ushbu yondashuvlarda turizm bozorini tahlil qilish, hududiy dasturlar ishlab chiqish va xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, barqarorlik konsepsiyasi ko‘proq amaliy choralar orqali talqin qilinib, indikatorlar tizimi hali to‘liq standartlashmaganligi va xalqaro metodlar bilan integratsiya darajasi yetarli emasligi kuzatiladi. Empirik modellar (jumladan, SEM, regressiya) qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning tizimliligi va xalqaro taqqoslanish darajasini oshirish zarurati mavjud.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy ilmiy maktab metodologik aniqlik va kompleks modellashtirish bilan ajralib tursa, MDH maktabi hududiy boshqaruv va tashkiliy mexanizmlarni ishlab chiqishda ustunlikka ega. O‘zbekiston olimlari esa mahalliy sharoitni chuqur hisobga olgan holda amaliy yechimlar taklif etadi. Shu bois, mintaqaviy turizmni samarali rivojlantirish uchun ushbu uch yondashuvni integratsiyalashgan holda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda xorijiy metodlarning aniqligi, MDH tajribasining boshqaruv mexanizmlari va milliy yondashuvlarning amaliy yo‘naltirilganligi uyg‘unlashtirilishi ilmiy va amaliy jihatdan yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova, M. T. Innovatsionnyy mekhanizm razvitiya turizma v regionakh Uzbekistana [Innovative mechanism of tourism development in the regions of Uzbekistan] // Ekonomika i upravlenie. – 2018. – № 4. – S. 45–52.

2. Shirinova, M. M. Modeli razvitiya ustoychivogo turizma: mezhdunarodnyy opyt i vozmozhnosti primeneniya v Uzbekistane [Sustainable

tourism models: international experience and application opportunities in Uzbekistan] // Vestnik turizma. – 2024. – № 2. – S. 12–20.

3. Azizova, N. T. Sovremennye tendentsii razvitiya turisticheskogo rynka Uzbekistana [Current trends in the development of the tourism market of Uzbekistan] // Ekonomika regiona. – 2023. – № 1. – S. 88–95.

4. Maslennikova, E. G. Sovremennoe sostoyanie i faktory ustoychivogo razvitiya rynka selskogo turizma v Respublike Uzbekistan [Current state and factors of sustainable development of rural tourism in the Republic of Uzbekistan] // Agrarnaya ekonomika. – 2023. – № 3. – S. 60–68.

5. Karazhanova, G. T. Perspektivy ustoychivogo razvitiya selskogo turizma v Uzbekistane [Prospects for sustainable development of rural tourism in Uzbekistan] // Regionalnaya ekonomika. – 2023. – № 5. – S. 101–109.

6. Khalilov, S. Turizm sohasi: joriy holat va barqaror rivojlanish kafolatlari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2026. – № 1. – B. 25–33.

# Neuro-Pedagogy: Artificial Intelligence and Psychology in Education

# THE ROLE TEACHERS IN MODERN SOCIETY

Ganiyeva Habibaxon Shuhratbek qizi
Axmadjonova Gavharoy Dostonbek qizi
*Kokand State University*

***Annotation:*** *This article analyzes the role and importance of teachers in modern society under the conditions of globalization and rapid development. In particular, the leading role of teachers in the educational process and their contribution to shaping a well-rounded individual are discussed on a scientific and theoretical basis. Furthermore, the article highlights the new requirements placed on teachers in the context of digital technologies and innovative education, as well as the necessity of developing their professional competencies. The social status, moral and educational activities of teachers, and their direct impact on the stable development of society are also thoroughly examined.*

***Keywords:*** *teacher, social development, education, pedagogical activity, professional competence, innovative technologies, moral education, personal development, social status, modern education, pedagogical skills, lifelong learning, intellectual growth*

Introduction: In the modern era, it is becoming increasingly evident that the development of society and the competitiveness of a state largely depend on the level of its education system. At the center of this system stands the teacher. The teacher is recognized as one of the key factors determining the intellectual potential of society.

Processes such as globalization, the rapid increase in information flow, and the widespread implementation of digital technologies are placing new demands on teachers' professional activities. Today, a teacher is not only a provider of knowledge but also a mentor who encourages students to think independently, approach

problems critically, and engage in creative activities. Moreover, teachers play a crucial role in strengthening the moral foundations of society by instilling national and universal values in the younger generation. From this perspective, studying and improving the role of teachers in society is of great importance.

Main Part: The Social Role of Teachers in Society Teachers are active participants in the social, economic, and cultural development of society. By educating the younger generation, they contribute directly to the future progress of society. As a result of teachers' activities, knowledgeable, morally mature, and socially active individuals are formed.

The social role of teachers is reflected in the following aspects:

1. transmitting knowledge and skills from one generation to another
2. ensuring the socialization of young people
3. promoting national and universal values
4. strengthening social stability


*Requirements for Modern Teachers*

Today, the professional activity of a teacher is complex and multifaceted. A modern teacher should possess the following competencies:

- deep theoretical knowledge and practical experience
- ability to effectively use pedagogical technologies
- skills in information and communication technologies
- communicative and psychological readiness
- creative and critical thinking abilities

A teacher must continuously work on self-improvement, enhance qualifications, and acquire new knowledge, which ensures professional growth. Innovative approaches have become an essential component of modern education, reflecting the rapid advancement of science and technology. The integration of interactive teaching methods, digital tools, and online learning platforms has transformed traditional classroom practices and expanded the possibilities of education. Teachers are now required to adopt flexible and student-centered approaches that respond to the diverse needs and abilities of learners. By

incorporating innovative practices into their teaching, educators can significantly enhance the effectiveness of the learning process. Interactive methods such as group discussions, problem-based learning, and project-based activities promote active participation and collaboration among students. The use of digital technologies, including multimedia resources and virtual learning environments, makes lessons more engaging and accessible. As a result, students develop a deeper understanding of the subject matter and become more motivated to learn.






**Social Status and Prestige of Teachers** - The social status and prestige of teachers play a crucial role in determining the overall quality of education within a society. When teachers are respected and valued, they are more motivated to perform their duties effectively and contribute to the development of the education system. A high level of social recognition enhances the professional identity of teachers and reinforces their sense of responsibility toward their work.

Respect for teachers should be reflected not only in words but also in practical measures aimed at improving their working conditions and ensuring their well-being. Adequate remuneration, social protection, and opportunities for career advancement are essential factors that influence teachers' job satisfaction and performance. When teachers feel supported and appreciated, they are more likely to demonstrate dedication, creativity, and commitment in their professional activities.

State support is particularly important in strengthening the status of teachers. Government policies that prioritize education, provide continuous professional

development opportunities, and create a favorable environment for teaching and learning contribute to the overall improvement of the education system. Proper evaluation of teachers' work, based on fair and transparent criteria, also plays a significant role in recognizing their efforts and encouraging excellence.

Conclusion: In conclusion, teachers are one of the most important and responsible professions in society. They are not only knowledge providers but also key figures shaping the future of society. In modern conditions, while the demands on teachers continue to grow, their role in society is also becoming increasingly significant. Enhancing teachers' professional skills, improving their social status, and supporting their activities are essential conditions for societal development. Therefore, improving the education system, ensuring continuous professional development of teachers, and increasing their prestige remain among the most important priorities.

## References

1. Karimov, I. A. High Spirituality – An Invincible Force.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Together We Will Build a Free and Prosperous Democratic Uzbekistan.
3. Law of the Republic of Uzbekistan. On Education.
4. National Program for Personnel Training.
5. Theory and History of Pedagogy. Textbook.
6. Fundamentals of Modern Pedagogical Technologies.
7. Avloniy, A. Turkish Gulistan or Morality.
8. Tolipov, O., Usmonboyeva, M. Theoretical Foundations of Pedagogical Technologies.
9. Ishmuhamedov, R. Innovative Pedagogical Technologies.
10. Scientific and methodological manuals on teacher professional development

# TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA PSIXOLOGIYA INTEGRATSIYASI

Maksudova Munisa Rahimjon qizi
*Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti*
sh.maksudoff@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada neuro-pedagogika yo‘nalishining zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni, sun’iy intellekt texnologiyalari hamda psixologik yondashuvlarning integratsiyasi tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida inson miyasi faoliyatini hisobga olish, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan o‘qitish usullarini ishlab chiqish va sun’iy intellekt yordamida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Neuro-pedagogika, sun’iy intellekt, ta’lim, psixologiya, individual yondashuv, kognitiv jarayonlar, innovatsion texnologiyalar*

***Abstract:*** *This article analyzes the role of neuro-pedagogy in the modern education system, as well as the integration of artificial intelligence technologies and psychological approaches. It highlights the importance of considering brain activity in the learning process, developing teaching methods adapted to individual learner characteristics, and improving educational effectiveness through artificial intelligence.*

***Keywords:*** *Neuro-pedagogy, artificial intelligence, education, psychology, individual approach, cognitive processes, innovative technologies.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль нейропедагогики в современной системе образования, а также интеграция технологий искусственного интеллекта и психологических подходов. Рассматриваются вопросы учета деятельности мозга в процессе обучения, разработки методов обучения с учетом индивидуальных особенностей учащихся и повышения эффективности образования с помощью искусственного интеллекта.*

***Ключевые слова:*** *Нейропедагогика, искусственный интеллект, образование, психология, индивидуальный подход, когнитивные процессы, инновационные технологии.*

Zamonaviy ta’lim tizimi va metodlari global o‘zgarishlar davrida tez sur’atlarda rivojlanib, yangi yondashuvlarni, yangi tizimlarni talab qilmoqda. Bundan tashqari, neuro-pedagogika – ya’ni miya faoliyatiga asoslangan ta’lim metodlari va yo’nalishlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda ko’proq psixologiya, nevrologiya va pedagogika fanlarining integratsiyasiga asoslanmoqda. Ya’ni bir nechta alohida qismlar, tizimlar yoki jarayonlarni bir butun holga keltirish, birlashtirish demakdir.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimiga juda faol kirib kelmoqda. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini oshirishga va individuallashtirish, tahlil qilish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini bermoqda.

Neuro-pedagogikaning nazariy asoslari.

Neuro-pedagogika inson miyasi qanday ishlashini o‘rganib, ta’lim jarayonini shu asosda va yo’nalishda tashkil etishga qaratilgandir. Kognitiv jarayonlar – ularga : diqqat, xotira, fikrlash va idrok – o‘qitish samaradorligida juda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ma’lumotni turli xil usullarda va yo’nalishlarda qabul qiladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi individual yondashuvni qo‘llashi kerak va zarurdir.

Ta’limda sun’iy intellektning o‘rni.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonini va ta’lim yondashuvini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Misol uchun :

• adaptiv o‘qitish tizimlari ( bu o’quvchining bilimi, tezligi, qiziqishi , xato va kamchiliklariga qarab moslashadigan ta’lim tizimi )

• aqlli test tizimlari ( bu o’quvchilarning bilimini baxolashda sun’iy intellekt va avtomatik tahlildan foydalanadigan zamonaviy metod test tizimi )

• o‘quvchilar bilimini avtomatik baholash ( bu o’quvchilar bilim darajasini kompyuter dasturlari va sun’iy intellekt yordamida to’g’ridan-to’g’ri avtomatik tekshirish va baxolash jarayoni hisoblanadi ) .

Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi tahlil qilinadi va ularga mos o‘quv materiallari asisida ta’lim beriladi. Bu esa ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Psixologik yondashuvlarning ahamiyati.

Ta’lim olish jarayonida psixologik omillar juda katta ro’l o‘ynaydi. Motivatsiya, emotsional holatlar va stress darajasi ham o‘quvchilarning bilim olishiga va uni samarali o‘zlashtirishiga ham juda katta ta’sir qiladi.

Neuro-pedagogika bu omillarni hisobga olib:

• o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.
• stressni kamaytiradi.
• o‘rganishni osonlashtiradi.

4. Integratsiyaning amaliy ahamiyati.

Sun’iy intellekt va psixologiyaning integratsiyasi quyidagi natijalarga olib keladi:

• individual o‘qitish tizimlari.
• samarali ta’lim platformalari.
• real vaqt monitoring.
• o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish.

Masalan, zamonaviy platformalar o‘quvchining xato kamchiliklarini tahlil qilib, unga mos ravishda mashqlarni taklif qiladi.

Neuro-pedagogika zamonaviy o’qitish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt va psixologiyaning integratsiyasi o’qish ta’lim samaradorligini oshirishda juda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Kelajakda ta’lim tizimi bundanda individuallashtirilgan, texnologiyalarga asoslangan holda va psixologik jihatdan mukammal tizimga aylanishi kutilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sidiqova, Y. S. Neuro-Pedagogy: Present And Future Perspectives // International Journal of Pedagogics. — 2025.

2. Ахмедова, М., Нарметова, Ю. Нейропедагогика и нейропсихология как развивающаяся новая наука // Общество и инновации. — 2022. — Т. 3, № 2/S. — С. 103–109.

3. Монуева, М., Абдималик кызы, Ж., Эсенбай уулу, С. Возможности искусственного интеллекта в образовании // Вестник Ошского государственного университета. Педагогика. Психология. — 2024. — № 2(5). — С. 158–165.

4. Schmidgall, S., Achterberg, J., Miconi, T. et al. Brain-inspired learning in artificial neural networks: a review. — 2023.

5. Pichat, M. Psychology of Artificial Intelligence: Epistemological Markers of the Cognitive Analysis of Neural Networks. — 2024.

# EFFECTIVE METHODS OF TEACHER–STUDENT COLLABORATION IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Qodirova Davlatxon Baxodirjo qizi

*Andijon 7- sonli qurilish va transport texnikumi*

***Annotation:*** *This study examines the main types of group discussion methods used in the educational process, including brainstorming, debate, problem-centered discussion, and round table discussion. The paper highlights their advantages in developing students' critical thinking, communication skills, and ability to work collaboratively. These methods encourage active participation, idea exchange, and the development of problem-solving skills, making the learning process more interactive and effective.*

***Keywords:*** *group discussion, brainstorming, debate, problem-centered method, round table discussion, collaborative learning, active learning, critical thinking, communication skills, student engagement.*

The modern education system is aimed at the formation of the learner as an individual, developing their creative thinking, ability to make independent decisions, and active participation in society. The effective implementation of such an approach largely depends on establishing collaborative relationships between teacher and student, creating an environment of mutual communication, shared responsibility, and joint activity during the lesson process. The improvement of education quality requires not only the teacher's active role but also the involvement of students as active participants in the learning process. The positive aspect of collaborative learning lies in transforming the student from a passive recipient of knowledge into an active creator of knowledge, capable of solving problems independently. In this process, the teacher acts as a facilitator, guide, and advisor. Therefore, developing

and applying effective tools of collaboration in the classroom is one of the most important factors in improving the quality and outcomes of education.

Today, pedagogical technologies based on collaboration, interactive methods, project-based and problem-based learning, reflection, and student-centered assessment systems contribute to increasing student engagement. However, determining the effectiveness of these tools, selecting them appropriately for classroom conditions, and scientifically justifying their practical application mechanisms remain among the most актyal tasks. In this regard, developing effective tools to ensure teacher–student collaboration in the lesson process, implementing them in practice, and creating scientifically grounded recommendations to enhance lesson effectiveness define the theoretical and practical significance of this research. This process increases students' initiative, activates independent inquiry, and forms a culture of co-creation. Therefore, this chapter explores in depth the foundations of this approach, its practical mechanisms, psychological principles, and innovative methods that enhance its effectiveness. The role of collaboration in the educational process is substantiated not only as a methodological requirement but also as a fundamental factor determining the quality of education.

**Group discussion method: content.** Developing students' ability to think independently, communicate effectively, and make decisions is one of the priority tasks of modern education. One of the most effective methods for developing these skills is the group discussion method. This method is based on the exchange of ideas, expressing reasoned positions, and collaboratively creating solutions. It is an interactive teaching method that directs learners to discuss, analyze, evaluate, and develop solutions to a specific problem, question, or topic in groups. Its main purpose is to ensure the active participation of all learners, identify diverse viewpoints, analyze problems comprehensively, foster mutual respect and listening culture, and develop collaborative decision-making skills.

- In this method, teachers divide the whole class into small groups and assign them a topic for discussion. Within a limited time, students are expected to generate

ideas or solutions to the given problem. This method enhances discussion skills and the ability to exchange ideas among students.

The procedure for implementation is as follows. Before the lesson, it is important to clearly define the topic for discussion. The topic should be open-ended and encourage multiple perspectives. It is necessary to formulate stimulating questions that promote independent thinking, the expression of personal viewpoints, and openness to others' opinions. The format of presenting the question should also be planned, such as in written form on paper, on presentation slides, or on the board. In addition, the method of grouping students should be determined in advance, whether randomly, based on the topic, or according to their level. Supporting materials such as worksheets, tables, and diagrams should also be prepared to facilitate group work.

- During the lesson, students are divided into groups at the beginning. The teacher announces the discussion topic and sets a clear time limit. Each group discusses the question, exchanges ideas freely, and works collaboratively to find solutions. At this stage, the teacher monitors the activity of the groups and provides guidance if the discussion deviates from the topic.
- After the lesson, a general summary is conducted. The results of group activities, common approaches, and original ideas are analyzed. The most important conclusions are highlighted, and the most effective solutions are emphasized from a methodological perspective.
- The group discussion method encourages students to actively exchange ideas in a short period, analyze problems quickly, and develop communication skills. It is effective in increasing classroom engagement and helping students understand the value of their role and opinions within a team. Therefore, it can be widely applied in subjects such as social sciences, language and literature, history, and law.

**Types of group discussion methods::** **Table - 1**

| **№** | **Method name** | **Advantages** |
|---|---|---|
| 1 | "Brainstorming" | Free flow of ideas, criticism is temporarily restricted, and many ideas are generated. |
| 2 | "Debate-style" discussion | Two or several opposing groups express their opinions. They support their ideas with arguments. |
| 3 | "Problem-centered" method | One problem is presented. Groups take turns offering suggestions |
| 4 | ""*"Round table" discussion* | Free discussion within a broad topic. |

**Conclusion:**

Group discussion methods play an important role in the educational process by increasing students' activity and developing their independent and critical thinking skills. The "brainstorming" method helps to freely generate new ideas, while the "debate" format develops the ability to support opinions with arguments. The "problem-centered" method strengthens a collaborative approach to finding solutions, and the "round table" discussion promotes open communication and the culture of sharing ideas. Together, these methods enhance students' teamwork, communication skills, and creative thinking abilities.

## REFERENCES

1. Arends, R. I. Learning to teach. — 9th ed. — McGraw-Hill, 2012.

2. Brookfield, S. D., Preskill, S. Discussion as a way of teaching: Tools and techniques for democratic classrooms. — Jossey-Bass, 2005.

3. Johnson, D. W., Johnson, R. T., Smith, K. A. Active learning: Cooperation in the college classroom. — Interaction Book Company, 2014.

4. Slavin, R. E. Educational psychology: Theory and practice. — 12th ed. — Pearson, 2018.

5. Barkley, E. F., Cross, K. P., Major, C. H. Collaborative learning techniques. — Jossey-Bass, 2014.

6. Prince, M. Does active learning work? A review of the research // Journal of Engineering Education. — 2004. — Vol. 93, No. 3. — P. 223–231.

7. Bonwell, C. C., Eison, J. A. Active learning: Creating excitement in the classroom // ASHE-ERIC Higher Education Report. — 1991.

8. Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. — Harvard University Press, 1978.

9. Piaget, J. The psychology of the child. — Basic Books, 1972.

10. Dewey, J. Experience and education. — Macmillan, 1938.

11. Gillies, R. M. Cooperative learning: Integrating theory and practice. — Sage Publications, 2007.

12. Harmer, J. The practice of English language teaching. — 4th ed. — Pearson Longman, 2007.

# RAQAMLI MUHITDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Suyunova Nargiza Abdurashid qizi

*Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti*

nargizasuyunova55@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada umumta’lim maktablari, ayniqsa 9-sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari yoritilgan. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya sharoitida mazkur fikrlash turlarining shaxsning intellektual kamolotidagi ahamiyati, ularning o‘zaro uyg‘unligi va kognitiv faoliyatga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, gamifikatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, onlayn hamkorlik platformalari, adaptiv ta’lim yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish hamda sun’iy intellektga tayangan vositalarning pedagogik imkoniyatlari asoslantirib berilgan.*

***Kalit so‘zlar****: raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, kognitiv kompetensiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik, raqamli pedagogika.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются научно-педагогические аспекты развития логического и критического мышления с использованием цифровых технологий в образовательном процессе средних школ, особенно учащихся 9-го класса. Исследование глубоко анализирует важность этих типов мышления для интеллектуального развития личности в условиях цифровой трансформации, их взаимосвязь и влияние на познавательную деятельность. Также обосновываются педагогические*

*возможности геймификации, технологий виртуальной и дополненной реальности, онлайн-платформ для совместной работы, адаптивных подходов к обучению, проектного обучения и инструментов на основе искусственного интеллекта.*

***Ключевые слова:*** *цифровые технологии, цифровая среда обучения, логическое мышление, критическое мышление, когнитивные компетенции, инновационные педагогические подходы, геймификация, искусственный интеллект, цифровая грамотность, цифровая педагогика.*

***Abstract:*** *This article discusses the scientific and pedagogical aspects of developing logical and critical thinking skills using digital technologies in the educational process of secondary schools, especially 9th grade students. The study deeply analyzes the importance of these types of thinking in the intellectual development of a person in the conditions of digital transformation, their mutual compatibility and impact on cognitive activity. It also substantiates the pedagogical possibilities of gamification, virtual and augmented reality technologies, online collaboration platforms, adaptive learning approaches, project-based learning, and tools based on artificial intelligence.*

***Keywords:*** *digital technologies, digital learning environment, logical thinking, critical thinking, cognitive competencies, innovative pedagogical approaches, gamification, artificial intelligence, digital literacy, digital pedagogy.*

**Kirish.** Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish metodologiyasiga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Zamon talablari kontekstida mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi shaxs rivojlanishining muhim komponenti sifatida qaraladi. Pedagogik jarayonda raqamli vositalarning integratsiyasi nafaqat bilim uzatish usullarini modernizatsiya qiladi, balki kognitiv faoliyatning sifat jihatlarini ham tubdan o‘zgartiradi. 9-sinf o‘quvchilari o‘sish davrining muhim bosqichida bo‘lib, ular uchun mantiqiy-analitik fikrlashning rivojlanishi kelajakdagi professional va shaxsiy muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda bu ikki fikrlash turi bir-birini to‘ldiruvchi holda rivojlanadi va kognitiv faoliyatning yangi sifat darajasini ta’minlaydi. 9-sinf o‘quvchilari uchun bu ko‘nikmalar ayniqsa muhim, chunki ular o‘rta ta’limning yakuniy bosqichiga o‘tish arafasida turadi va mustaqil bilim olish hamda ma’lumotlarni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur.

**Asosiy qism.** Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish 9-sinf o‘quvchilarining axborotni samarali tahlil qilish, baholash va talqin qilish imkonini berish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishga qulay muhitni yaratadi va shu bilan ularning ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni ilgari suradi [1].

Tadqiqotchilar 9-sinflarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirish uchun hamkorlik platformalari va multimedia yaratish kabi raqamli vositalardan foydalanish, faol pedagogik strategiyalar bilan birgalikda foydalanish ta’kidlangan, teran o‘quv dizayni va o‘qituvchilarni tayyorlash muhimligini ta’kidlaydilar [2].

Gamifikatsiyalangan ta’lim, virtual haqiqat simulyatsiyasi va hamkorlikdagi onlayn platformalar kabi innovatsion ta’lim modellari 9-sinflarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Ushbu raqamli texnologiyalar analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rag‘batlantiradigan, tanqidiy fikrlash qobiliyatini samarali oshiradigan qiziqarli tajribalarni yaratadi [3].

Innovatsion raqamli savodxonlik amaliyotlari 9-sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlangan. O‘qituvchilarning nuqtai nazarlari mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi raqamli vositalarni samarali integratsiya qilish uchun doimiy kasbiy rivojlanish va hamkorlik zarurligini ta’kidlaydi [4].

Raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish innovatsion yondashuvlar kompleksini talab etadi. Tadqiqotning metodologik bazasini tashkil etuvchi ilmiy yondashuvlar majmuasi raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning ko‘p qirrali tabiatini kompleks o‘rganish imkonini beradi.

Biroq, shunday imkoniyatlarga qaramay raqamli texnologiyalar vositasida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qator qiyinchiliklar mavjud va ularni bartaraf etish yo‘llarini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Birinchi muammo - raqamli bo‘linish (digital divide), ya’ni barcha o‘quvchilarning zamonaviy raqamli vositalarga teng kirishga ega emasligi. Mobil ilovalarda ishlash imkoniyati, offlayn rejimda foydalalanish va past internet tezligida samarali ishlaydigan platformalarni tanlash bu muammoni qisman hal qilishi mumkin.

Ikkinchi muammo - pedagoglarning raqamli kompetentligining yetarli darajada bo‘lmasligi. O‘qituvchilarni raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazish, professional rivojlanish dasturlari va masofaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari zarur. O‘qituvchilar nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki raqamli vositalarni pedagogik jihatdan samarali qo‘llash metodologiyasini ham o‘zlashtrishlari kerak.

Uchinchi muammo - o‘quvchilarning raqamli vositalardan chalg‘itish uchun foydalanishi va chuqur mantiqiy tahlil o‘rniga yuzaki ma’lumot qidirishi. “Digital distraction” muammosini bartaraf etish uchun strukturali topshiriqlar berish, aniq maqsadlar qo‘yish va o‘quvchilarning faoliyatini monitoring qilish zarur. O‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi muammo - raqamli vositalardan haddan tashqari foydalanish va ekran vaqtining ko‘pligi. Sog‘lom balansni ta’minlash uchun raqamli va an’anaviy ta’lim metodlarini kombinatsiyalash, vaqtni cheklash va fizik faollik pauzalarini kiritish tavsiya etiladi.

Beshinchi muammo - intellektual mulk va akademik halollik masalalari. O‘quvchilar internetdan tayyor javoblarni nusxalashlari yoki AI vositalaridan noo‘rin foydalanishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar vositasida 9-sinf o‘quvchilarining mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishidir. Innovatsion yondashuvlar - adaptiv ta’lim,

gamifikatsiya, loyiha asosidagi o‘qitish, teskari ta’lim, dasturlash o‘rgatish, raqamli portfolio, onlayn hamkorlik, ma’lumotlar tahlili va AI ga asoslangan vositalar - kompleks ravishda qo‘llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Asosiy tamoyillar - individuallashuv, faollik, sistemlilik, multimodallik, kontekstuallik, hamkorlik, qayta aloqa, motivatsiya, xavfsizlik va integratsiya - pedagogik jarayonning sifatini ta’minlaydi. 9-sinf o‘quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish, amaliy mexanizmlarni to‘g‘ri tanlash va samarali baholash tizimlari o‘rnatish mantiqiy va tanqidiy fikrlashning puxta rivojlanishiga olib keladi. Muammolar va qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqilgan va xalqaro tajribalar O‘zbekiston kontekstida moslashtirilishi mumkin.

Umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik tamoyillari yaxlit nazariy-metodologik tizimni tashkil etadi. Yuqoridagi yondashuvlar va tamoyillar o‘zaro chambarchas bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik yo‘naltmalar majmuini ifodalaydi, ularning har biri raqamli ta’lim muhitida kognitiv faoliyatni tashkil etishning muayyan jihatini tartibga soladi.

Ilmiylik, tizimlilik va pedagogik maqsadgalik tamoyillari mazkur konsepsiyaning nazariy-metodologik fundamentini tashkil etadi va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslangan, izchil va didaktik maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi. Vizualizatsiya, interaktivlik va faollik tamoyillari esa raqamli muhitning o‘ziga xos texnologik imkoniyatlarini pedagogik jihatdan samarali qo‘llash mexanizmlarini belgilab beradi. Differensiatsiya, refleksivlik va axborot xavfsizligi tamoyillari zamonaviy ta’limning gumanistik yo‘nalishini, shaxs markazli yondashuvni va raqamli jamiyatda mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlaydi.

Ushbu yondashuvlar va tamoyillar tizimining amaliyotga tatbiq etilishi pedagogik jarayonda texnologiya va didaktikaning uyg‘un integratsiyasini, o‘quvchilarning intellektual potentsialini maksimal ro‘yobga chiqarishni va XXI asr talablariga javob beradigan kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatini

yaratadi. Tamoyillar majmuasi shunchaki nazariy konstrukt emas, balki amaliy pedagogik faoliyatni yo‘naltiruvchi, raqamli ta’lim muhitini loyihalashda ko‘rsatma beruvchi va ta’lim sifatini baholashda mezon vazifasini bajaruvchi konseptual asos hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda, taqdim etilgan ilmiy-pedagogik yondashuvlar va tamoyillar tizimiga amal qilish mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarning didaktik potentsialini to‘laqonli amalga oshirish va o‘quvchilarni kelajak raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi. Yondashuvlar va tamoyillar majmuasining kompleks qo‘llanilishi pedagogik innovatsiyalarning ilmiy asoslanganligini, tizimliligini va uzoq muddatli samaradorligini kafolatlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rohmah, S. (2025). Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. *Indonesian Journal of Islamic Educational Review*, *2*(1), 49–54. https://doi.org/10.58230/ijier.v2i1.212

2. Noblecilla-Espinoza, I. K., & Guamán Gómez, V. J. (2025). O‘rta ta’limda raqamli vositalar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. *Sociedad & Tecnología*, *8*(S1), 277–291. https://doi.org/10.51247/st.v8is1.597

3. Taliak, J., Amaliah, A., Nugroho, A., Mubarak, M., & Putro, A. B. P. (2024). Ta’lim texnologiyasidagi yutuqlar: innovatsion ta’lim modellari orqali talabalar o’rtasida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. *Global International Journal of Innovative Research*, *2*(1), 355–363. https://doi.org/10.59613/global.v2i1.56

4. Muslih, R. A. A., & Perda, M. (2025). Tanqidiy fikrlashni shakllantirish: o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik va innovatsiyalar bo‘yicha istiqbollari. *2*(1), 46–55. https://doi.org/10.15575/educater.v2i1.2060

5. Suyunova N.A. Foreign Experiences In Developing Students' Logical And Critical Thinking Through Digital Technologies. International Journal of Pedagogics (ISSN 2771-2281). Volume 06 Issue 01 January 2026. https://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/8874

6. Suyunova N.A. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositalari va usullari. Tafakkur ziyosi 2025 yil 3-nashr. JDPU tahririy nashriyot bo'limi 243-246 betlar.

7. Suyunova N.A. Enhancing logical thinking in school students. Strategies, challenges, and future directions. Science and innovation, International scientific journal volume 4 issue 9 september 2025 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 165-169 pages

# РАЗВИТИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА: ОТ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ К СОВРЕМЕННОМУ УРОКУ

Мусаева Ирода Бахтиёровна

*E-mail:* musayevairoda@gmail.com

***Аннотация****: В работе рассматривается, как менялось преподавание русского языка — не только в теории, но и в реальной школьной практике. Особое внимание уделяется тому, что многие привычные сегодня методы на самом деле выросли из более ранних педагогических идей. На основе анализа литературы и личных наблюдений за уроками показано, что современное обучение строится не на отказе от традиций, а на их переосмыслении. Делается вывод о том, что наибольший эффект даёт не «новизна ради новизны», а продуманное сочетание разных подходов.*

***Ключевые слова:*** *русский язык, методика преподавания, школьное обучение, педагогические традиции, образовательная практика.*

***Annotatsiya****: Ushbu ishda rus tilini o‘qitish nafaqat nazariy jihatdan, balki maktab amaliyotida ham qanday o‘zgarganligi ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda odatiy bo‘lgan ko‘plab usullar aslida oldingi pedagogik g‘oyalardan kelib chiqqanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish va darslarni shaxsan kuzatish asosida zamonaviy ta’lim an’analardan voz kechishga emas, balki ularni qayta ko‘rib chiqishga asoslanishi ko‘rsatilgan. "Yangilik uchun yangilik" emas, balki turli yondashuvlarning puxta o‘ylangan kombinatsiyasi eng katta samara beradi, degan xulosaga kelinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *rus tili, o‘qitish metodikasi, maktab ta’limi, pedagogik an’analar, ta’lim amaliyoti*

***Abstarct:*** *The work examines how Russian language teaching has changed - not only in theory but also in real school practice. Special attention is paid to the*

*fact that many of the methods familiar today actually grew out of earlier pedagogical ideas. Based on the analysis of literature and personal observations of lessons, it has been shown that modern teaching is built not on abandoning traditions, but on their reinterpretation. It is concluded that the greatest effect comes not from "novelty for novelty," but from a well-thought-out combination of different approaches.*

***Keywords:*** *Russian language, teaching methodology, school education, pedagogical traditions, educational practice.*

Если честно, когда впервые начинаешь сравнивать «старые» и «новые» уроки русского языка, разница кажется очевидной. Раньше — правила, упражнения, диктанты. Сейчас — обсуждения, проекты, какие-то интерактивные задания. Но чем дольше смотришь на это вживую, тем меньше эта граница кажется чёткой. Например, даже на самых «современных» уроках всё равно есть объяснение. Учитель всё так же что-то показывает, разбирает, уточняет. Просто делает это по-другому — чаще задаёт вопросы, иногда как будто думает вместе с классом. И в этот момент становится понятно: дело не в замене методов, а в их изменении. Если немного уйти в историю, становится видно, откуда это всё идёт. Долгое время обучение строилось вокруг правильности: как писать, как говорить, где не ошибаться. Это давало результат — особенно в письменной речи. Но, как отмечают исследователи, такая система не всегда помогала свободно пользоваться языком в реальной жизни [5]. Постепенно к этому начали добавляться другие элементы. Сначала осторожно — больше внимания к речи, к пониманию текста. Потом активнее — уже с попытками включить ученика в процесс. Сейчас это кажется очевидным, но на самом деле это результат довольно длинного пути.

В современной школе это ощущается особенно хорошо. Бывают уроки, где всё идёт по привычной схеме: объяснение — упражнение — проверка. И вроде всё правильно, но реакции почти нет. А бывает, что учитель задаёт один вопрос — и класс «оживает». Причём вопрос может быть довольно простым. Не «какое правило здесь применено», а, например: «как вы это понимаете?»

или «а можно ли сказать по-другому?». И вот в этот момент начинается настоящее обучение [2].

Интересно наблюдать, как в таких ситуациях меняется речь учащихся. Сначала — короткие ответы, иногда почти наугад. Потом появляются уточнения, кто-то не соглашается, кто-то добавляет. И разговор начинает развиваться сам. Такие моменты сложно прописать в плане урока, но именно они, кажется, дают больше всего. Отдельно стоит сказать о работе с текстом. Она была всегда, но сейчас воспринимается иначе. Раньше текст часто был просто «примером». Сейчас он становится поводом для разговора. И это сразу меняет многое. Потому что текст — это не только грамматика, но и смысл, эмоция, позиция. И когда учащиеся начинают это обсуждать, язык перестаёт быть набором правил.

Конечно, нельзя сказать, что всё работает идеально. Иногда обсуждение не идёт. Иногда учащиеся молчат, даже если вопрос интересный. И тогда снова приходится возвращаться к более привычным формам. В этом, наверное, и есть особенность современной методики — она не заменяет одно другим, а постоянно балансирует. С одной стороны, есть проверенные вещи: объяснение, тренировка, повторение. С другой — попытка сделать обучение более осмысленным, «живым»[3].

Как отмечается в исследованиях, эффективное обучение языку связано не столько с выбором метода, сколько с его осмысленным использованием [1]. И это, пожалуй, хорошо видно на практике.

Есть ещё один момент, который становится заметен не сразу. Учащиеся по-разному реагируют на один и тот же формат. Кто-то легко включается в обсуждение, кто-то чувствует себя увереннее в чётко структурированных заданиях. И здесь становится важно не просто использовать «современные» методы, а понимать, зачем они нужны и когда они уместны [4].

В итоге складывается довольно интересная картина. С одной стороны — традиция, которая даёт структуру и устойчивость. С другой — новые формы,

которые добавляют гибкости. И между ними нет жёсткой границы. Скорее, это постоянное движение, поиск баланса.

## Заключение

Если попробовать подвести итог, то, наверное, главное — это не противопоставлять «старое» и «новое». Современный урок русского языка — это не что-то принципиально иное, а скорее продолжение того, что уже было, только в других условиях.

Исторические подходы никуда не исчезли. Они просто стали менее заметными, но по-прежнему задают основу. А всё остальное — формы, технологии, задания — уже выстраивается вокруг этой основы. И, судя по практике, лучше всего работают не самые «новые» методы, а те, которые используются осознанно и в нужный момент.

## Список использованной литературы

1. Якубова Г.З. Методика преподавания русского языка и литературы. – 2024.
2. Қобулжонов А.Қ. История преподавания русского языка в Узбекистане. – 2024.
3. Дуллиева М.Н. Теоретические аспекты методики преподавания русского языка. – 2025.
4. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2017.
5. Янченко В.Д. История методики преподавания русского языка. – 2017.

# ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ

Мусаева Ирода Бахтиёровна

*E-mail:* musayevairoda@gmail.com

***Аннотация****: В тезисной работе рассматривается трансформация историко-педагогических подходов к преподаванию русского языка в современной образовательной практике. Особое внимание уделяется тому, каким образом традиционные методические принципы сохраняются и адаптируются в условиях обновления содержания образования. На основе анализа литературы и наблюдений за учебным процессом показано, что современные методы обучения представляют собой сочетание классических и инновационных подходов. Делается вывод о значимости осознанного использования педагогического опыта прошлого для повышения эффективности обучения.*

***Ключевые слова:*** *преподавание русского языка, методика обучения, историко-педагогические основы, образовательная практика, коммуникативный подход.*

***Annotatsiya****: Tezis ishida zamonaviy ta’lim amaliyotida rus tilini o‘qitishga tarixiy-pedagogik yondashuvlarning o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Ta’lim mazmunini yangilash sharoitida an’anaviy metodik tamoyillar qay tarzda saqlanib, o‘zgarib borishiga alohida e’tibor qaratiladi. Adabiyotlarni tahlil qilish va o‘quv jarayonini kuzatish asosida zamonaviy o‘qitish usullari klassik va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unlashuvidan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. O‘qitish samaradorligini oshirishda o‘tmish pedagogik tajribasidan ongli ravishda foydalanishning ahamiyati haqida xulosa qilinadi.*

*Kalit so‘zlar: rus tilini o‘qitish, o‘qitish metodikasi, tarixiy-pedagogik asoslar, ta’lim amaliyoti, kommunikativ yondashuv.*

***Abstract:*** *The thesis examines the transformation of historical and pedagogical approaches to teaching Russian in modern educational practice. Special attention is paid to how traditional methodological principles are preserved and adapted in the context of educational content renewal. Based on the analysis of literature and observations of the educational process, it has been shown that modern teaching methods represent a combination of classical and innovative approaches. A conclusion is drawn about the importance of consciously using past pedagogical experience to increase teaching effectiveness.*

***Keywords****: Russian language teaching, teaching methodology, historical and pedagogical foundations, educational practice, communicative approach.*

**Тезис**

Современная практика преподавания русского языка нередко воспринимается как результат внедрения новых образовательных технологий. Однако более внимательный анализ показывает, что её основа формировалась на протяжении длительного исторического периода. Это позволяет говорить не о резком обновлении методики, а о постепенной трансформации сложившихся педагогических подходов.

Исторически преподавание русского языка было ориентировано на усвоение грамматической системы и правил письменной речи. Подобный подход обеспечивал системность знаний, но ограничивал развитие коммуникативных навыков учащихся. В научных исследованиях подчёркивается, что методика обучения русскому языку изначально формировалась как междисциплинарная область, объединяющая достижения педагогики, психологии и лингвистики [1]. Со временем стало очевидно, что владение языком невозможно свести только к знанию правил. Это привело к постепенному усилению практической направленности обучения. В частности, внимание стало уделяться развитию устной речи, пониманию текста и способности использовать язык в реальных ситуациях общения [3].

В современной школе данная тенденция получила развитие в рамках коммуникативного подхода. Он предполагает активное включение учащихся в процесс обучения через обсуждение, совместную деятельность и анализ речевых ситуаций. При этом традиционные элементы, такие как изучение грамматики, не исчезают, а интегрируются в речевую практику. Как показывают исследования, эффективность обучения возрастает в тех случаях, когда грамматические знания используются как средство решения коммуникативных задач [4]. Особую роль в преподавании русского языка продолжает играть работа с текстом. В традиционной методике текст выступал в качестве иллюстративного материала, однако в современной практике его функции расширяются. Он становится объектом анализа, обсуждения и интерпретации. Учащиеся учатся не только понимать содержание, но и выражать собственное отношение к прочитанному.

Наблюдения за учебным процессом показывают, что именно такие формы работы способствуют повышению активности учащихся. В ситуациях, где присутствует элемент диалога, школьники чаще проявляют инициативу, задают вопросы и стремятся аргументировать свою позицию. При этом важно отметить, что подобная активность не возникает сама по себе. Она требует определённой организации учебного процесса и педагогической поддержки со стороны учителя. Таким образом, современная методика преподавания русского языка характеризуется сочетанием традиционных и инновационных подходов. С одной стороны, сохраняется системность обучения, внимание к структуре языка и последовательность подачи материала. С другой — усиливается роль коммуникативных и интерактивных форм работы.

Историко-педагогические основы в данном случае выступают не как устаревшие модели, а как фундамент, на котором строится современное обучение. Их переосмысление позволяет адаптировать методику к новым условиям, не теряя при этом её целостности. В условиях цифровизации образования особую актуальность приобретает вопрос о соотношении традиционных методов и новых технологий. Практика показывает, что

наибольший эффект достигается при их разумном сочетании. Использование цифровых ресурсов расширяет возможности обучения, однако не заменяет педагогического взаимодействия.

Таким образом, трансформация методики преподавания русского языка представляет собой процесс, в котором исторический опыт сохраняет свою значимость, но получает новое содержание. Это позволяет говорить о преемственности педагогических идей и их адаптации к современным образовательным задачам [2].

## Заключение

Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что современное преподавание русского языка развивается на основе историко-педагогической преемственности. Традиционные подходы не утрачивают своей актуальности, а трансформируются в соответствии с требованиями времени.

Эффективность обучения во многом определяется способностью сочетать различные методы, учитывая особенности учащихся и цели образования. В этом контексте историко-педагогические основы выступают как важный ресурс, обеспечивающий устойчивость и развитие методики.

## Список использованной литературы

1. Якубова Г.З. Методика преподавания русского языка и литературы. – 2024.

2. Қобулжонов А.Қ. История преподавания русского языка в Узбекистане. – 2024.

3. Дуллиева М.Н. Теоретические аспекты методики преподавания русского языка. – 2025.

4. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2017.

# ИСТОРИКО- ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Мусаева Ирода Бахтиёровна

*E-mail: musayevairoda@gmail.com*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается, как исторически сложившиеся педагогические подходы к преподаванию русского языка проявляются в современной образовательной практике. Особое внимание уделяется не только теоретическим аспектам, но и наблюдениям за реальным учебным процессом. Показано, что многие традиционные элементы обучения сохраняют свою значимость, однако используются в изменённой форме и в сочетании с диалоговыми и интерактивными методами. Отмечается, что эффективность преподавания во многом зависит от того, насколько осмысленно сочетаются различные подходы и учитывается активная роль учащихся в учебном процессе.*

***Ключевые слова:*** *преподавание русского языка, методика обучения, историко-педагогические основы, образовательная практика, коммуникативный подход, школьное образование.*

***Annotatsiya:*** *Maqolada rus tilini o‘qitishning tarixiy-pedagogik asoslari va ularning zamonaviy ta’lim amaliyotida qanday namoyon bo‘layotgani ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor nafaqat nazariy yondashuvlarga, balki real dars jarayonidagi kuzatuvlarga ham qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullari o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ular bugungi kunda yangicha shaklda, interaktiv va dialogik metodlar bilan uyg‘un holda qo‘llanilmoqda. Shuningdek, o‘qitish samaradorligi o‘quvchilarning faolligi va turli yondashuvlarning ongli ravishda birlashtirilishiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *rus tilini o‘qitish, o‘qitish metodikasi, tarixiy-pedagogik asoslar, ta’lim amaliyoti, kommunikativ yondashuv, maktab ta’limi.*

***Abstract****: The article explores how historically developed pedagogical approaches to teaching the Russian language are reflected in modern educational practice. The focus is placed not only on theoretical foundations but also on observations of real classroom interaction. The study shows that many traditional elements of teaching remain relevant, though they are applied in updated forms and combined with interactive and dialogic methods. It is argued that the effectiveness of teaching largely depends on the meaningful integration of different approaches and the active involvement of students in the learning process.*

***Keywords:*** *teaching Russian language, teaching methodology, historical and pedagogical foundations, educational practice, communicative approach, school education.*

**Введение**

Почему одни методы преподавания русского языка оказываются эффективными даже спустя десятилетия, а другие быстро теряют актуальность? Этот вопрос неизбежно приводит к необходимости обратиться к историко-педагогическим основаниям обучения. Современная образовательная практика часто воспринимается как результат внедрения новых технологий и подходов. Однако за внешней новизной скрывается преемственность идей, сформированных в разные исторические периоды. Методика преподавания русского языка развивалась под влиянием педагогических концепций, изменений в обществе и представлений о роли языка в формировании личности. В научных исследованиях подчёркивается, что методика обучения языку формируется на пересечении педагогики, психологии и лингвистики [1]. Это объясняет её устойчивость и способность адаптироваться к новым условиям.

Цель настоящего исследования — выявить, каким образом историко-педагогические подходы к преподаванию русского языка находят отражение в современной образовательной практике и влияют на результаты обучения.

*Методы*

Работа строилась не как строго формальный эксперимент, а скорее как попытка внимательно посмотреть на привычные учебные ситуации.

Во-первых, был проведён анализ современных и классических работ по методике преподавания русского языка [2], [3], [4]. При этом акцент делался не на пересказе теорий, а на поиске повторяющихся идей.

Во-вторых, использовалось наблюдение за уроками. Это были обычные школьные занятия, без искусственно созданных условий. Внимание уделялось тому, как учащиеся реагируют на разные формы работы: объяснение, обсуждение, работа с текстом.

Иногда фиксировались довольно простые вещи: где ученики начинают терять внимание, а где, наоборот, включаются в процесс. Такие наблюдения не всегда выглядят «научно» в строгом смысле, но именно они позволяют увидеть живую сторону обучения. Кроме того, анализировались устные ответы учащихся — не с точки зрения правильности, а с точки зрения того, насколько они осмысленны и самостоятельны.

*Обсуждение*

Результаты оказались, с одной стороны, ожидаемыми, а с другой — довольно показательными.

Первое, что бросается в глаза: полностью отказаться от традиционных элементов обучения не получается. Даже в самых современных уроках остаётся объяснение, работа с правилами, структурирование материала. Но меняется способ их использования. Например, грамматика уже не воспринимается как самоцель. Она «встраивается» в речь, становится инструментом, а не конечным результатом.

Второе наблюдение связано с диалогом. Там, где урок превращается в обсуждение — пусть даже короткое — учащиеся начинают говорить более

осмысленно. Их ответы становятся менее шаблонными, появляются попытки объяснить свою точку зрения. Интересно, что даже простое задание «обсудить текст» работает по-разному. Если оно даётся формально, реакции почти нет. Но если учитель задаёт вопрос, на который нет одного правильного ответа, разговор оживляется.

Третье — работа с текстом. Она была и остаётся центральной, но меняется её характер. Если раньше текст чаще служил для иллюстрации правила, то теперь он становится поводом для размышления.

В целом можно сказать, что учащиеся активнее включаются в процесс там, где есть элемент выбора, обсуждения или сомнения.

*Результаты*

Полученные наблюдения заставляют по-новому взглянуть на соотношение традиции и инновации. С одной стороны, очевидно, что многие современные методы не являются абсолютно новыми. Они скорее развивают идеи, которые уже существовали в педагогике. Например, принцип активности учащегося обсуждался задолго до появления цифровых технологий. С другой стороны, меняется сам контекст. То, что раньше было дополнительным элементом (например, обсуждение), сегодня становится центральной частью урока. Отдельно стоит отметить роль учителя. Один и тот же метод может работать по-разному в зависимости от того, как он используется. Иногда даже простое объяснение превращается в диалог, если в нём есть место для вопросов. Интересно и то, что учащиеся лучше реагируют не на «новизну» как таковую, а на осмысленность задания. Если они понимают, зачем выполняют задание, их вовлечённость заметно выше.

Таким образом, историко-педагогические основы проявляются не в виде готовых схем, а скорее как логика построения урока. Они задают направление, но не ограничивают форму.

*Заключение*

Если попытаться подвести итог, можно сказать, что современное преподавание русского языка — это не разрыв с прошлым, а его продолжение

в новых условиях. Исторические подходы не исчезают, а трансформируются. Они становятся менее заметными, но при этом продолжают определять структуру обучения. Практика показывает, что наиболее устойчивыми оказываются те методы, которые учитывают активную роль учащегося, связь языка с реальной жизнью и необходимость осмысленного использования знаний. И, возможно, главный вывод заключается в том, что эффективность преподавания зависит не столько от выбора «старого» или «нового», сколько от того, насколько осознанно эти элементы сочетаются в конкретной учебной ситуации.

## Список литературы

1. Якубова Г.З. Методика преподавания русского языка и литературы. – 2024.
2. Қобулжонов А.Қ. История преподавания русского языка в Узбекистане. – 2024.
3. Дуллиева М.Н. Теоретические аспекты методики преподавания русского языка. – 2025.
4. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как иностранного. – 2017.

# New Frontiers: Fundamental Physics and Chemical Synthesis

# II ANALITIK GURUH $PB^{2+}$ KATIONINING O'ZIGA XOS SIFAT REAKSIYALARI

Matyakubov Azamat Quvandiqovich

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*m.azamat.q.0919@gmail.com*

Abdujalilova Maxmuda Baxodir qizi

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*abdujalilovamaxmuda14@gmail.com*

Aliqulova Xakima Abdujalilovna

*Piskent tumani 29-U.O'.T maktabi*

*hakimaaliqulova6@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada II analitik guruhga mansub bo'lgan, qo'rg'oshin ionining o'ziga xos sifat reaksiyalari yoritilgan. Qo'rg'oshin ionining xlorid, bromid, yodid, sulfid hamda xromat ionlari bilan beradigan cho'kmalarining rangi, eruvchanlik xususiyatlari va ularning analitik ahamiyati ilmiy asosda sharhlangan. Shuningdek, $Pb^{2+}$ ionining ammiak bilan plyumbitlar hosil qilishi va bu jarayonning tahlil jarayonda tutgan o'rni ko'rsatib o'tilgan. Keltirilgan reaksiyalar qo'rg'oshin ionini boshqa kationlardan aniqlik bilan farqlash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqola analitik kimyo amaliyotida qo'rg'oshin ionini identifikatsiya qilish bo'yicha samarali usullarni yoritishi bilan o'quvchi uchun foydali bo'ldi.*

***Kalit so'zlar****: $Pb^{2+}$ ioni, sifat reaksiyalari, bromid bilan reaksiyasi, II analitik guruh, analitik idenitifikatsiya, plyumbitlar, qo'rg'oshin yodid cho'kmasi, sifat reaksiyalari, cho'kma hosil bo'lishi, eruvchanlik xususiyatlari, sifat tahlili, identifikatsiya, reagent, sezgirlik, kationlar tahlili*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются специфические качественные реакции иона свинца, относящегося к аналитической группе II. Проведена научная интерпретация цвета, растворимости и аналитического значения осадков иона свинца с хлоридными, бромидными, йодидными, сульфидными и хроматными ионами. Также показано образование плюмбита с аммиаком иона Pb2+ и роль этого процесса в аналитическом процессе. Описанные реакции важны, поскольку позволяют точно отличать ион свинца от других катионов. Данная статья полезна для читателя, поскольку освещает эффективные методы идентификации иона свинца в практике аналитической химии*

***Ключевые слова****: ион Pb2+, качественные реакции, реакция с бромидом, аналитическая группа II, аналитическая идентификация, плюмбиты, осадок йодида свинца, качественные реакции, образование осадка, свойства растворимости, качественный анализ, идентификация, реагент, чувствительность, анализ катионов*

***Abstract:*** *This article discusses the specific qualitative reactions of the lead ion, which belongs to analytical group II. The color, solubility properties and analytical significance of the precipitates of the lead ion with chloride, bromide, iodide, sulfide and chromate ions are scientifically interpreted. The formation of plumbite with ammonia of the Pb2+ ion and the role of this process in the analytical process are also shown. The reactions described are important in that they allow the lead ion to be accurately distinguished from other cations. This article was useful for the reader by highlighting effective methods for identifying the lead ion in the practice of analytical chemistry*

***Keywords:*** *Pb2+ ion, qualitative reactions, reaction with bromide, analytical group II, analytical identification, plumbites, lead iodide precipitate, qualitative reactions, precipitate formation, solubility properties, qualitative analysis, identification, reagent, sensitivity, cation analysis*

Kirish: Analitik kimyo fanida kationlarni guruhlarga ajratish va ularni sifat jihatdan aniqlash usullari moddalarnining tarkibini ishonchli baholashda muhim ahamiyatga ega. II analitik guruhga kiruvchi kumush ioni o'zining past eruvchanlikka ega bo'lgan xlorid, bromid, yodid va sulfidli birikmalari orqali oson tanib olinishi bilan ajralib turadi. Bu ionning rangli cho'kmalar hosil qilishi, ammiak bilan plyumbitlar hosil qilish va barqaor birikmalar yaratishi uni analitik tahlilda muhim obyektga aylantiradi. $Hg^{2+}$ kationining o'ziga xos sifat reaksiyalarini chuqur o'rganish aralashmalar tarkibida kumush ionini tez, aniq va ishonchli aniqlash imkonini beradi. Shu bois, mazkur mavzu analitik tahlilning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi va laboratoriya amaliyotida keng qo'llaniladi.

Analitik kimyo - moddalarni sifat jihatdan aniqlash va ularning miqdoriy tarkibini belgilashga doir ilmiy qonuniyatlar hamda metodlarni o'rganadigan fan hisoblanadi. Ushbu fan tarkibini sifat va miqdor bo'yicha tahlil qilish yo'nalishlariga ajratilgan holda o'rganiladi.

**Uslub va uslubiyatlar** : II analitik guruh kationlari haqida umumiy ma'lumot.

Ikkinchi analitik guruhga kumush($Ag^{+}$), simob($Hg^{2+}$) va qo'rg'oshin($Pb^{2+}$) kationlari kiradi. Ushbu guruhni ajratishda odatda 2 molyarli konsentratsiyadagi xlorid kislota eritmasi yoki ba'zan suvda eriydigan xloridlar eritmasidan foydalaniladi. Eritmada mavjud bo'lgan ushbu guruh kationlari reagent ta'sirida oson erimaydigan xloridlar AgCl, $PbCl_2$, $Hg_2Cl_2$ ko'rinishida oq cho'kma holida ajralib chiqadi. Ularning eruvchanlik ko'paytmasi mos ravishda 1,78*10-10; 1,6*10-5; 1,3*10-18 ga teng.

**Natija va muhokama**: Qo'rg'oshin kationining analitik reaksiyalari. Qo'rg'oshinning nitrat, atsetat, xlorat va perxloratlari suvda eruvchan bo`lib, ular suvli eritmalarda rangsiz. O'yuvchi ishqorlar va ammiak eritmasi ta'siridan qo'rg'oshin (II) ioni kuchli kislotalar va mo'l ishqorda eriydigan oq rangli cho'kma hosil qiladi:

$$Pb^{2+} + 2OH^{-} \rightarrow Pb(OH)_2\downarrow$$

$Pb(OH)_2$ cho'kma amfoter. Ishqorlarda eriganda plyumbitlar hosil bo'ladi:

$$Pb(OH)_2 + 2NaOH + Na_2PbO_2 + 2H_2O$$

kislota va eruvchan sulfatlar 2-3 tomchi $Pb(NO_3)_2$eritmasiga 4-5 tomchi tomizilsa, $PbSO_4$ ning oq cho'kmasi hosil bo'ladi:

$$Pb(NO_3)_2 + H_2SO_4 \rightarrow PbSO_4\downarrow + 2HNO_3$$

$$Pb^{2-} + SO_4^{2-} \rightarrow PbSO_4\downarrow$$

Olingan cho'kmaga ozroq NaOH eritmasi quyilib, aralashma qizdirilsa, cho'kma erib plyumbitlar hosil bo'ladi:

$$PbSO_4 + 4NaOH \rightarrow Na_2SO_4 + Na_2PbO_2 + 2H_2O$$

$$PbSO_4 + 4OH^- \rightarrow PbO_2^{2-} + SO_4^{2-} + 2H_2O$$

Qo'rg'oshin sulfat, shuningdek, 30 % li ammoniy atsetat yoki ammoniy tartrat bilan qizdirilganda ham eriydi:

$$PbSO_4 + 2CH_3COONH_4 \rightarrow Pb(CH3COO)_2 + (NH_4)_2SO_4$$

$$PbSO_4 + 2C_4H_4O_6^{2-} \rightarrow Pb(C_4H_4O_6)_2 + SO_4^{2-}$$

$PbSO_4$ cho'kmasi xlorid va nitrat kislotalarda ham $HSO_4^-$ ionining hosil bo'lishi tufayli qisman eriydi:

$$PbSO_4 + HNO_3 \rightarrow Pb^{2+} + HSO_4^- + NO_3^-$$

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, $PbSO_4$ ni to'la cho'ktirish uchun eritmadagi kislotalar yo'qotilishi kerak. $BaSO_4$ ning eruvchanligigaesa eritmadagi kislotalar sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki uning eruvchanlik ko'paytmasi (Ks°=l,l-10-10) $PbSO_4$ ning eruvchanlik ko'paytmasidan (KS°=l,610-8) 145 marta kichikdir.

Kaliy yodid eritmasi $Pb(NO_3)_2$ ning 3-4 tomchi eritmasiga 4-5 tomchi qo'shilsa, $PbJ_2$ ning sariq cho'kmasi hosil bo'ladi:

$$Pb(NO_3)_2 + 2KJ \rightarrow PbJ_2\downarrow + 2KNO_3$$

$$Pb^{2+} + 2J^- \rightarrow PbJ_2\downarrow$$

Probirkadagi hosil bo'lgan cho'kma ustidagi eritmaga 8-10 tomchi distillangan suv va sirka kislota quyib qizdirilsa, cho'kma erib ketadi. Probirka sovuq suvga tushirilsa, yaltiroq oltinsimon-sariq kristallar cho'kadi. Cho'kmaga bir necha tomchi KJ tomizilsa, uning erishi kuzatiladi:

$$PbJ_2 + 2KJ \rightarrow K_2[PbJ_4]$$

Kaliy xromat- $K_2CrO4$ $Pb^{2+}$ ioni bilan sariq rangli $PbCrO_4$ cho'kma hosil

qiladi:

$$Pb(NO_3)_2 + K_2CrO_4 \rightarrow PbCrO_4\downarrow + 2KNO_3$$

Cho'kma ishqorlar va $HNO_3$, da eriydi, $CH_3COOH$ da esa erimaydi. Xlorid kislota eritmasidan 4-5 tomchisi $Pb(NO_3)_2$ ning 3-4 tomchi eritmasiga qo'shilsa, oq rangli $PbCl_2$ cho'kma tushadi:

$$Pb(NO_3)_2 + 2HC1 \rightarrow PbCl_2\downarrow + 2HNO_3$$

Cho'kma qaynoq distillangan suvda eriydi, eritma sovitilganda esa yana cho'kadi.

Natriy gidrofosfat qo'rg'oshin ioni bilan oq rangli cho'kma hosil qiladi:

$$3Pb^{2+} + + 4HPO_4^{2-} \rightarrow Pb_3(PO_4)_2\downarrow + 2H_2PO_4^-$$

$Pb_3(PO_4)_2$ ishqorlarda yaxshi, nitrat (suyultirilgan) va sirka kislotalarda kam eriydi. Qo'rg'oshin fosfatning kislotalarda kam erishidan fosfatlarni I-III guruhlar kationlaridan ajratishda foydalaniladi.

Qo‘rg‘oshin kationining sulfid ioni bilan reaksiyasi. Qo‘rg‘oshin kationi sulfid ioni bilan qora cho‘kma hosil qiladi.

$$Pb^{2+} + S^{2-} \rightarrow PbS$$

Cho‘kma nitrat kislotasida eriydi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, II analitik guruh kationi bo‘lgan qo‘rg‘oshin ($Pb^{2+}$) ionining sifat reaksiyalarini o‘rganish analitik kimyoning muhim bo’limlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida qo‘rg‘oshin ionining xlorid, yodid, xromat va sulfid ionlari bilan hosil qilgan cho‘kmalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, xususan, ularning o‘ziga xos rangi va turli muhitlardagi eruvchanlik qonuniyatlari ilmiy asoslab berdim. Xususan, $PbCl_2$ cho‘kmasining issiq suvda eruvchanligi hamda $PbI_2$ ning qayta kristallanishi natijasida hosil bo‘ladigan o‘ziga xos "oltin yomg‘ir" reaksiyasi ushbu kationni boshqa elementlardan selektiv farqlash imkonini beradi. Shuningdek, $Pb^{2+}$ ionining plyumbitlar hosil qilish xususiyati uning amfoter tabiatini ko‘rsatib, tahlil jarayonida kationlarni guruhlararo ajratish ishlarini sezilarli darajada osonlashtiradi. Maqolamda keltirilgan ushbu ilmiy asoslangan metodlar

analitik kimyo amaliyotida qo‘rg‘oshin ionini aniqlashning yuqori samaradorligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.T. Gulamova, SH.Q. Norov, N.T. Turabov “Analitik kimyo”, “Voris – nashriyot” Toshkent – 2009.
2. Yu.Ya. Xaritonov, A.N. Yunusxo’jayev, A.A. Shabilalov, S.D. Nasirdinov “Analitik kimyo”, Analitika. Toshkent, O’zb.Res.Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2008.
3. Turabov N.T, Qutlimurotova N.H, Smanova Z.A. “Analitik kimyo” Toshkent – 2019.
4. A.Q. Matyakubov, Uslubiy ko’rsatma. Analitik kimyo fanidan kimyoviy analiz usullari bo’yicha laboratoriya ishlarini olib borish uchun. Chirchiq – 2025.
5. O. Fayzullayev, N. Turabov, E. Ro’ziyev, A. Quvatov, N. Muhammedov “Analitik kimyo laboratoriya mashg’ulotlari” Yangi asr avlodi, Toshkent – 2006.

# HUMANITAS: CULTURE, PHILOSOPHY, AND SPIRITUAL HERITAGE

# METODOLOGIK ASOSLARI: BELEWLI KARVON SAROYINI RESTOVRATSIYA QILISH BOSQICHLARI MISOLIDA

Abatbaev B.Y.

*QDU*

*baxadirabatbaev1613@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tumanlarini kompleks o‘rganishning nazariy-metodnologik asoslari Qo‘ng‘irot tumani (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) hududidagi Belewli (Beleuli) karvon saroyining restovratsiya qilish bosqichlari misolida tahlil etiladi. Tadqiqotning maqsadi – tumanlarning madaniy merosini saqlash va rivojlantirish jarayonida kompleks yondashuvning nazariy asoslarini ochib berish hamda amaliy metodologiyani taklif etishdan iborat. Kirish, metodlar, natijalar va muhokama bo‘limlarida tarixiy-arxeologik tadqiqotlar, arxitektura tahlili, loyihalashtirish va monitoring bosqichlari batafsil yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Belewli karvon saroyi kabi yodgorliklarni restovratsiya qilish tuman iqtisodiyoti (turizm, madaniy meros) va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi. Xulosa qismida kelgusidagi istiqbollar va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston tumanlari, kompleks o‘rganish, nazariy-metodologik asoslar, Belewli karvon saroyi, restovratsiya bosqichlari, madaniy meros, Ustyurt platosi, arxeologik tadqiqot, Qoraqalpog‘iston.*

***Аннотация:*** *В статье анализируются теоретико-методологические основы комплексного изучения районов Республики Узбекистан на примере этапов реставрации караван-сарая Белеули на территории Кунградского района (Республика Каракалпакстан). Целью исследования является раскрытие теоретических основ комплексного подхода в процессе сохранения*

*и развития культурного наследия районов, а также предложение практической методологии. В разделах "Введение," "Методы," "Результаты" и "Обсуждение" подробно освещены этапы историко-археологических исследований, архитектурного анализа, проектирования и мониторинга. Результаты показывают, что реставрация таких памятников, как караван-сарай Белеули, напрямую влияет на экономику (туризм, культурное наследие) и социальное развитие района. В заключительной части даны дальнейшие перспективы и рекомендации.*

***Ключевые слова:*** *районы Узбекистана, комплексное изучение, теоретико-методологические основы, караван-сарай Белеули, этапы реставрации, культурное наследие, плато Устюрт, археологические исследования, Каракалпакстан.*

***Abstract:*** *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of a comprehensive study of the regions of the Republic of Uzbekistan using the example of the restoration stages of the Belewli (Beleuli) caravanserai in the Kungrad district (Republic of Karakalpakstan). The aim of the research is to reveal the theoretical foundations of an integrated approach in the process of preserving and developing the cultural heritage of districts, as well as to propose a practical methodology. The sections on introduction, methods, results, and discussion provide detailed coverage of historical and archaeological research, architectural analysis, design, and monitoring stages. The results show that the restoration of monuments such as the Belewli caravanserai has a direct impact on the district's economy (tourism, cultural heritage) and social development. The conclusion section provides further perspectives and recommendations.*

***Keywords:*** *Districts of Uzbekistan, comprehensive study, theoretical and methodological foundations, Belewli caravanserai, restoration stages, cultural heritage, Ustyurt plateau, archaeological research, Karakalpakstan.*

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik davrida tumanlarni kompleks o‘rganish dolzarb masalaga aylandi. Bu jarayon nafaqat tarixiy-geografik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni qamrab oladi [1]. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining “O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari” yo‘nalishi aynan shu muammolarni hal etishga qaratilgan.

Belewli (Beleuli, Bileuli) karvon saroyi XIV asr (ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra XI asr) ga oid me’moriy yodgorlik bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani Jasliq qishlog‘idan 67 km shimoli-sharqda, Ustyurt platosida joylashgan. U Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘ini – Xorazmdan Povoljyegacha bo‘lgan qadimiy karvon yo‘lida joylashgan [2]. Hozirgi kunda yodgorlik milliy ro‘yxatga kiritilgan (2019-yil) va davlat muhofazasida, ammo uning restovratsiyasi hali to‘liq amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada Belewli karvon saroyini restovratsiya qilish bosqichlari tumanlarni kompleks o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari doirasida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bunday yodgorliklar tumanlarning turizm potensialini oshirish, madaniy o‘zlikni saqlash va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.




*Belewli karvon saroyining ikki baland ustuni (qoldiqlari) Ustyurt platosida. Quyosh botishi yoki chiqishi fonida — yodgorlikning ta’sirchan ko‘rinishi [9].*

**Metodlar**

Tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanilgan: tarixiy-metodologik tahlil, arxeologik va arxitektura tadqiqotlari, loyihalashtirish va monitoring usullari. Asosiy manbalar – Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallari (S.P.Tolstov rahbarligida, 1946–1950-yillar), 1982-yilgi Qozog‘iston madaniy meros komiteti ekspeditsiyasi hisobotlari hamda zamonaviy O‘zbekiston qonunchiligi (madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlar) [3].

Metodologik asos sifatida quyidagilar qo‘llanilgan:

- Tarixiy-qiyosiy tahlil (yodgorlikning qurilish davri va funksiyasini aniqlash);
- Geografik-informatsion tizimlar (GIS) yordamida hududni xaritalash;
- Arxitektura-muhandislik baholash (devorlar, minoralar va darvoza holatini o‘rganish);
- Restovratsiya loyihasini ishlab chiqishda xalqaro standartlar (Venetsiya xartiyasi tamoyillari) va O‘zbekistonning milliy tajribasi integratsiyasi.

Ma’lumotlar ikkilamchi manbalardan (ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari) va dala kuzatuvlari asosida to‘plangan. Statistik tahlil uchun tuman rivojlanish ko‘rsatkichlari (turizm oqimi, madaniy meros ob’ektlari soni) ishlatilgan.

**Natijalar**

Belewli karvon saroyini restovratsiya qilish bosqichlari quyidagicha tizimlashtirilgan:

1. **Tarixiy-arxeologik tadqiqot va hujjatlashtirish bosqichi (1946–1950-yillar va 1982-yil)**. Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan birinchi marta o‘rganilgan. Natijada 2 ta 8 metr balandlikdagi ustun, 7,66 metr balandlikdagi sher tasvirli darvoza va 14 xonali (7 ta har qavatda) ikki qavatli inshoot aniqlangan. Ichki hovlida quduq va isitish tizimi saqlangan. Bu bosqichda yodgorlikning Ustyurt platosidagi strategik ahamiyati va XI–XIV asrlardagi savdo yo‘li funksiyasi tasdiqlangan [2].

2. **Holatni kompleks baholash bosqichi**. 2019-yildan keyin milliy ro‘yxatga kiritilgandan so‘ng devorlar, minoralar (burchak minoralari diametri 3 m) va petroglyphlar holati o‘rganilgan. Tabiiy omillar (eroziya, iqlim o‘zgarishi) va inson ta’siri (vayronagarchilik) natijasida 35×29 metr o‘lchamdagi inshootning 60–70% qismi zarar ko‘rganligi aniqlangan. GIS yordamida tuman ichidagi boshqa meros ob’ektlari bilan bog‘lanishi xaritalashtirilgan.

3. **Loyiha ishlab chiqish va moliyalashtirish bosqichi**. Nazariy-metodologik asosda loyiha “saqlash + qisman rekonstruksiya” printsipi asosida tuzilishi kerak. Xalqaro grantlar (YUNESKO, Aga Xon jamg‘armasi tajribasi) va mahalliy byudjetdan foydalanish tavsiya etiladi. Loyihada ekologik monitoring (Ustyurt biosferasi) va turizm infratuzilmasi integratsiyasi ko‘zda tutiladi.

4. **Amaliy restovratsiya va konservatsiya bosqichi**. Asl materiallardan (qizil g‘isht, tosh) foydalanib, darvoza va ustunlarni mustahkamlash, ichki xonalarni qayta tiklash. Bu bosqichda mahalliy hunarmandlar va mutaxassislar jalb etiladi.

5. **Monitoring va foydalanish bosqichi**. Restovratsiyadan keyin doimiy monitoring (elektron sensorlar) va tuman turizm dasturlariga kiritish. Natijada Qo‘ng‘irot tumani iqtisodiyotiga yiliga 10–15 ming sayyoh oqimi kutilmoqda.

**Muhokama**

Belewli karvon saroyini restovratsiya qilish bosqichlari tumanlarni kompleks o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini amalda tasdiqlaydi. Bir tomondan, bu jarayon tarixiy merosni saqlashni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga (ish o‘rinlari, madaniy ta’lim) hissa qo‘shadi. Muammolar orasida moliyaviy cheklovlar va iqlim o‘zgarishi (Ustyurt cho‘li) alohida o‘rin tutadi. Xalqaro tajriba (Buxoro karvon saroylari restovratsiyasi) bilan taqqoslaganda, mahalliy metodologiyani kuchaytirish zarur. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompleks yondashuv tumanlarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlashga yordam beradi [4].

**Xulosa**

O‘zbekiston tumanlarini kompleks o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari Belewli karvon saroyini restovratsiya qilish bosqichlari orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Taklif etilgan bosqichlar (tadqiqot, baholash, loyiha, amaliyot va monitoring) nafaqat yodgorlikni saqlaydi, balki Qo‘ng‘irot tumani va butun mamlakatning madaniy-turistik salohiyatini oshiradi. Kelgusida bu tajribani boshqa tumanlar (masalan, Ustyurtdagi boshqa karvon saroylari) ga tatbiq etish tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari va mutaxassislar uchun foydali bo‘lishiga umid qilamiz.

## Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (49-modda) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. — 2023. — № 1. — B. 45–67.

2. Tolstov, S. P. Drevniy Khorezm: Opyt istoriko-arkheologicheskogo issledovaniya. — M.: Izd-vo AN SSSR, 1948. — 456 s.

3. Manylov, Yu. P. Arkheologicheskie issledovaniya karavan-saraev Tsentral’nogo Ustyurta // Arkheologiya Priaral’ya. Vyp. I. — Toshkent: Fan, 1982. — S. 98–112.

4. Nurbayev, O. A. Ustyurtdagi unutilgan bekat: Beleuli karvon-saroyi // Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. — 2026. — Vol. 4. — № 1. — B. 383–388.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi qarori (Moddiy madaniy meros ob’ektlari milliy ro‘yxati) // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. — 2019. — № 40. — B. 567–589.

6. Karakalpakstan.travel. Beleuli karvonsaroyi: Ustyurt platosidagi me’moriy meros [Elektron resurs]. — 2024. — URL: https://karakalpakstan.travel

7. (kirish sanasi: 2026-yil 1-aprel).

8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Beleo‘li karvonsaroyi. — Toshkent: O‘zFA, 2023. — 12-jild. — B. 234–235.

9. Venetsiya xartiyasi (1964) // Xalqaro madaniy meros hujjatlari to‘plami. — Toshkent: UNESCO, 2015. — B. 15–28.

10. Karakalpakstan.travel. Media and resources [Elektron resurs]. — URL: https://karakalpakstan.travel/media-and-resources/media-and-resources-51/

# USMON AZIM SHE'RLARIDA METAFORANING SEMANTIK QATLAMLARI

Ergasheva Shaxnoza Shuxratovna

*Buxoro xalqaro universiteti*

*ergashevashaxnoza152@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riy tilida metaforaning lisoniy tuzilishi va semantik ko'p qatlamliligi tahlil qilinadi. "Uzun tun" va "Yurak" to'plamlaridagi she'riy matnlar asosida metaforaning vizual-tasviriy, ramziy va falsafiy-estetik qatlamlari ochib beriladi. Tadqiqot shoirning individual uslubiy xususiyatlarini lingvopoetik nuqtai nazardan aniqlashga yo'naltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *metafora, semantik qatlam, lingvopoetika, Usmon Azim, individual uslub, she'riy til, ramziy ma'no.*

**Kirish.** Badiiy til tadqiqotlarida metafora doimo markaziy o'rinni egallab kelgan. Biroq har bir shoirda metaforaning o'ziga xos ishlash mexanizmi mavjud bo'lib, aynan shu mexanizmni aniqlash shoirning individual uslubini tushunishning kalitidir. Usmon Azim ijodida metafora faqat estetik bezak emas — u she'riy matnning asosiy semantik kuchini tashkil etadi [1, b.78]. Shoirning balladalaridagi konseptual metaforalar va lirik she'rlaridagi obrazlar tizimi hali to'liq lingvopoetik tahlil qilinmagan, bu esa tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Asosiy qism.** Usmon Azim metaforalari bitta so'z yoki ibora doirasida qolmaydi — ular she'r bo'yi kengayib, konseptual metaforaga aylanadi. Lingvistik jihatdan bunday metaforalar "ramziy metafora" yoki "kengaytirilgan metafora" deb

ataladi [2, b.34]. Shoirning “Uzun tun” to‘plamida bu hodisa eng yorqin namoyon bo‘ladi.

“Uzun tun” to‘plamidagi she’rda lirik qahramonning ruhi va ichki holati metafora orqali tasvirlanadi [3, b.27]:

Iztirobdan

Yurak yuksalib borar,

Teranlaship borar,

Borar kenglashib,

Go‘shtlikdan

Asabga aylanib borar,

Tobora boradi ruhga tenglashib.

Bu she’rda “yurak yuksalib borar” ifodasi oddiy fiiologik holat emas — ruhiy kamolotning, azob ichida o‘sishning metaforik tasviridir. Lingvistik jihatdan bu dinamik metaforaning namunasidir: taqqoslanuvchi narsa — yurak — o‘zgarish jarayonida ko‘rsatiladi. “Ruhga tenglashib” misrasi esa tafakkurning ulkan ko‘lam bilan qo‘shilishini ifodalovchi falsafiy qatlam hosil qiladi [4, b.45].

Semantik qatlamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu she’rda metafora uch qatlam hosil qiladi: birinchi qatlamda — jismoniy azobning tasviri, ikkinchi qatlamda — ruhiy o‘sish va kengayish, uchinchi qatlamda esa — insonning o‘zini osmon bilan tenglashtirishi, ya’ni falsafiy ulug‘vorlik. Aynan shu qatlamlar bir-birini to‘ldirishi shoirning individual uslubi belgilaridan biri hisoblanadi.

“Deraza haqida ballada”da esa metafora va jonlantirish birgalikda ishlab, “qo‘shaloq munosabat” hosil qiladi [5, b.112]. Deraza obrazi butun she’r bo‘yi semantik jihatdan boyib boradi [3, b.13]:

Kuzakning besoḥib kechalarida

Izg‘irinlar yelar, yomg‘irlar ezar...

Dunyoning ḥo‘lzulmat ko‘chalarida

Tentirab kezinar yolg‘iz dereaza.

Bu bandda “dereaza” so‘zi jonlantirilgan — u “tentirab kezinar”, ya’ni inson singari sargardon. Shu bilan birga dereaza metaforik ma’noda ham ishlaydi: u inson qalbining ramzidir. Lisoniy jihatdan bitta til birligiga birlashishi — jonlantirish va metaforaning qo‘shilishi — Usmon Azim balladalarining eng o‘ziga xos lingvistik xususiyati sifatida baholanadi [2, b.56].

She’r davomida bu obraz yanada chuqur semantik qatlam oladi [3, b.14]:

Dereaza qaytadi poy piëda,

O‘tgan yo‘llarini tanimaskolazi...

Sovuq bir devor bor, axir, dunyoda,

O‘sha muzdaj devor — qismatning o‘zi!

“Qismatning o‘zi” metaforasi bilan she’rda ikki semantik qatlam yakunlanadi: yolg‘izlik va sargardonlik qatlami, hamda inson va taqdirning to‘qnashuvi qatlami. Shoir bu ikki qatlamni “deraza” obrazi orqali yagona lisoniy birlikka bog‘lashi — konseptual metaforaning she’r boshidan oxirigacha boyib borishi — lingvopoetikada alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisa hisoblanadi [1, b.134].

Shoirning “Sarbadorlar qo‘shig‘i”dagi metaforalar esa milliy madaniy arxetiplardan oziqlanadi [3, b.21]:

Bizning dilimiz — yerda,

Bizning qo‘limiz — qorda.

Qoru Yerdan ayrilar —

Torting boshimiz dorga!

Bu yerda “yer” va “qor” taqqoslov komponentlari bir-biriga zid semantik maydonlarni ifodalaydi: yer — vatan, hayot, issiqlik; qor — begona muhit, sovuqlik, majburlash. O‘zbek madaniy ongidagi “tuproq = vatan” arxetipik ramzini Usmon Azim o‘ziga xos sintaktik tuzilish — nominal gaplar, qo‘shaloq misralar — orqali yangilab, chuqur ma’no qatlami hosil qiladi [6, b.88].

**Xulosa.**

Usmon Azim she’rlarida metaforaning lingvopoetik tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, shoir metaforasining konseptual tabiati she’riy matnda uch qatlamli semantik tuzilmani hosil qiladi: bevosita-vizual tasvir, ramziy ma’no va falsafiy-estetik yuklama. Ikkinchidan, metafora va jonlantirishning birgalikda ishlashi — “qo‘shaloq tropik munosabat” — Usmon Azim balladalarining o‘ziga xos lingvistik belgisidir. Uchinchidan, shoirning metaforalari milliy madaniy arxetiplar bilan zamonaviy falsafiy tafakkurni sintez qilib, o‘zbek she’riyatiga yangi semantik imkoniyatlar olib kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. — Тошкент: Фан, 2007. — 224 б.

2. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. — Тошкент: Фан, 1981. — 59 б.

3. Азим Усмон. Сайланма: Шеърлар. — Тошкент: Шарқ, 1995.

4. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: дисс. … д-ра филол. наук. — Тошкент, 1992. — 146 б.

5. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. — Самарқанд: СамДУ, 1975. — 82 б.

6. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fan. d-ri. diss. — Toshkent, 1994. — 292 b.

# USMON AZIM SHE’RLARIDA TAKROR VA ANTITEZANING USLUBIY VAZIFALARI

Ergasheva Shaxnoza Shuxratovna

*Buxoro xalqaro universiteti*

ergashevashaxnoza152@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she’riy tilida takror va antitezaning stilistik tuzilishi, semantik vazifalari va o‘zaro ta'sir mexanizmi tahlil qilinadi. “Uzun tun” to‘plamidagi she’riy matnlar asosida takrorning gradatsion-psixologik ta'siri va antitezaning falsafiy-dialektik funksiyasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida ushbu badiiy vositalarning Usmon Azim individual uslubini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *takror, antiteza, uslubiy vazifa, lingvopoetika, Usmon Azim, gradatsiya, she’riy til, individual uslub.*

***Kirish.***Takror va antiteza o‘zbek she’riyatida azaldan qo‘llanib kelingan. Ammo bu vositalarning vazifasi shoirdan shoirga keskin farq qiladi. Usmon Azim ijodida takror faqat ritmik qurilma emas — u semantik yukni asta-sekin oshirib boruvchi, hissiyot to‘lqinini kuchaytiruvchi asosiy lisoniy mexanizmga aylanadi [1, b.201]. Antiteza esa uning she’rlarida hayot ziddiyatlarini falsafiy jihatdan anglash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [2, b.156]. Ushbu ikki vositaning birgalikdagi ishlashini lingvopoetik tahlil qilish shoirning individual uslubini yanada to‘liqroq ochib beradi.

***Asosiy qism.***Usmon Azim she’rlarida takrorning eng kuchli namunasidir “Uchrashdi — uchrashmadik” she’ri. Bu she’rda bir so‘zning takrorlanishi orqali kumulyativ ta'sir hosil qilinadi [3, b.7]:

*Tong chog‘i tun bilan kunduz uchrashdi,*

*Tunda armon bilan yulduz uchrashdi,*

*Bahor bilan kuzak — baxtxush uchrashdi,*

*Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.*

Bu bandda “uchrashdi” so‘zi uch marta takrorlanadi, so‘ng «uchrashmadik» keladi. Lisoniy jihatdan bu kontrastiv takror yoki «raddiya takrori» deb ataladigan hodisadir: ko‘p marta tasdiqlangan narsaning bir marta inkorlanishi she’r mantiqida dramatik burilish yaratadi [4, b.38]. “Uchrashdi” so‘zi takrorlanib-takrorlanib kuchayadi, “uchrashmadik” esa shu to‘plangan kuchni bir zarbda bo‘shatadi. Shu orqali ajraliqning fojialiligi aytib o‘tilmaydi — sezdiriladi.

She’rning ikkinchi bandi bu ta'sirni yana kuchaytiradi [3, b.7]:

*Bulut zamin bilan yig‘lab uchrashdi,*

*Shamol kurtaklarni ilg‘ab uchrashdi,*

*Visol hijron bilan minglab uchrashdi,*

*Yoshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.*

Har bandning oxirida “biz uchrashmadik” refren tarzida qaytarilishi she’rga musiqiy tuzilish berish bilan birga semantik funksiya ham bajaradi: refren — bu faqat qaytariq emas, balki lirik qahramonning ichki dardini qayta-qayta eslatib, uni yanada og‘irlashtiruvchi lisoniy vositadir [1, b.203]. O‘zbek tilshunosligida bunday takrorni “leytmotiv takrori” deb atash mumkin, chunki u she’r bo‘yi yagona hissiy mazmunni saqlaydi va kuchaytiradi.

Takrorning ikkinchi muhim namunasi — “Endi” so‘zining qo‘llanishi [3, b.8]:

*Endi she’r yozmayman unga bag‘ishlab,*

*Endi xayolini o‘ylab yig‘layman.*

*Ana, qorli kecha — oppoq farishta*

*Bo‘salar olmoqda aziz manglaydan.*

“Endi” so‘zi ikkala misrada ham bosh o‘rinda keladi. Yuzaki o‘qishda — qat'iyat, chuqur o‘qishda — nadomat va o‘z-o‘zi bilan kurash. Birinchi misradagi “yozmayman” qat'iyligi ikkinchi misradagi “yig‘layman” bilan bevosita ziddiyatga kiradi. Bu — antiteza asosiga qurilgan takror, ya'ni takror va antitezaning birgalikda ishlashi [5, b.67]. Shoir shu paradoks orqali lirik qahramonning ichki kechinmasini hayotiy va ishonchli tarzda ko‘rsatadi.

Antitezaning eng kuchli namunasidir “Sarbadorlar qo‘shig‘i”dagi misralar [3, b.21]:

*Bizning dilimiz — yerda,*

*Bizning qo‘limiz — qorda.*

*Qoru Yerdan ayrilar —*

*Torting boshimiz dorga!*

*Torting boshimiz dorga!*

Bu she’rda “dil” va “qo‘l” — ichki ma'naviy dunyo va jismoniy harakat. “Yer” va “qor” — issiqlik va sovuqlik, hayot va o‘lim, vatan va surgun. Ularning antitezasi orqali sarbadorlarning tragik tanlovini — vatandan butunlay ajralib, qonga botishga tayyorligini — shoir tasvirlaydi. “Torting boshimiz dorga!” juftligining ikki marta takrorlanishi antiteza orqali yaratilgan dramatik mazmunni yanada kuchaytiradi: takror bu yerda antitezani “mustahkamlaydi» va she’rning emotsional cho‘qqisini belgilaydi [2, b.158].

“Uchrashdi — uchrashmadik” she’rining so‘nggi bandida esa antiteza boshqacha shaklda ishlaydi [3, b.7]:

*Yonimda turibman dalli devona,*

*Yorim-a, ketdimi ishq yona-yona?*

*Men seni quchaman... Sovuq, begona —*

*Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.*

“Sovuq, begona” ifodasi “quchaman” fe’li bilan yaratgan antiteza — quchoqlashning jismoniy bo‘lishi, lekin ruhiy sovuqlik — she’rning eng ta'sirchan lahzalaridan biridir. Bu yerda antiteza so‘z darajasida emas, balki harakat va hissiyot o‘rtasidagi ziddiyat sifatida qurilgan [4, b.45]. Bunday “harakatli antiteza” Usmon Azim uslubiga xos o‘ziga xos lisoniy belgi sifatida ajralib turadi.

***Xulosa.***Usmon Azim she’rlarida takror va antitezaning lingvopoetik tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, takror bu she’rlarda faqat ritmik qurilma emas — u gradatsion-psixologik ta'sir yaratuvchi asosiy lisoniy mexanizm sifatida ishlaydi: har bir qaytarilishda so‘z yangi semantik qatlam oladi, his kuchayadi. Ikkinchidan, antiteza Usmon Azim she’rlarida so‘z darajasida emas, harakat va hissiyot o‘rtasidagi ziddiyat sifatida qurilib, “harakatli antiteza” deb ataladigan o‘ziga xos lisoniy hodisani hosil qiladi. Uchinchidan, takror va antitezaning birgalikda ishlashi — “takror-antiteza sintezi” — shoirning individual uslubini shakllantirishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. — Тошкент, 2008. — 313 б.
2. Жумаев М. Ўзбек тилининг семантик таҳлили. — Тошкент: Фан, 1996. — 152 б.

3. Азим Усмон. Сайланма: Шеърлар. — Тошкент: Шарқ, 1995.
4. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: дисс. … д-ра филол. наук. — Тошкент, 1992. — 146 б.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили стилистикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 240 б.
6. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. — Самарқанд: СамДУ, 2006. — 120 б.

# KINO VA MEDIA SANOATINING MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLARGA TA’SIRI

Kadirov Farxod Absattarovich

*Angren universiteti*

*e-mail: farhodkadirov59@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur ilmiy maqolada kino va media sanoatining milliy-axloqiy qadriyatlarga ta’siri ijtimoiy-falsafiy hamda madaniy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda ommaviy kommunikatsiya, kino va media mahsulotlarining milliy identitet, axloqiy me’yorlar hamda ijtimoiy xulq-atvor shakllanishidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida media kontent orqali ijobiy va salbiy axloqiy modellarning tarqalishi, stereotiplarning mustahkamlanishi hamda yoshlar ongiga ta’sir mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kino va media sanoati milliy qadriyatlarni mustahkamlash bilan birga, noto‘g‘ri axloqiy namunalarni ommalashtirish xavfini ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, media siyosat va kontent ishlab chiqarish jarayonida milliy-ma’naviy mezonlarni hisobga olish zarur.*

***Kalit so‘zlar.*** *Kino sanoati, media makon, milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, milliy identitet, globallashuv, ommaviy kommunikatsiya, ijtimoiy ong.*

